O'quv jarayonini o'quv-metodik qo'llab-quvvatlash ta'lim faoliyatni o'quv-metodik ta'minotining butun kompleksini tayyorlashda ifodalanadi:

- o'quv adabiyotlar;
- o'quv qo'llanmalar;
- ma'ruzalarning mualliflik kurslari;
- topshiriqlar to'plami, situatsion topshiriqlar va mashqlar to'plami (case-study);
- testlar to'plami;
- laboratoriya va boshqa amaliyotlar;
- o'quv-mashg'ulotlar klasslaridagi mashg'ulotlar uchun integratsiyalangan qo'llanmalar;
- kursni o'rganish bo'yicha qo'llanma (study-guide);
- kompyuter dasturlari, shuningdek mustaqil ishni tashkil qilish uchun boshqa materiallar.

Ta'lim faoliyatining o'quv-metodik ta'minoti turli texnologik muhitlarda (face-to-face o'qitish, tarmoq o'qitish, multimediya o'qitishdan) foydalanish uchun turli axborot tashuvchilarda (qog'oz tashuvchilar, CD-ROM, disketlar, videokassetlar, audiokassetlar) bo'lishi mumkin. Virtual kafedra faoliyatining turli yo'nalishlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishi hisoblanadi:

- o'quv kurslarining tarkibini takomillashtirish va rivojlantirish yo'nalishining ilmiy-metodik asosi;
- ta'lim faoliyatning barcha o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish va rivojlantirish yo'nalishining ilmiy-metodik asosi;
- o'qitish, ta'lim texnologiyalar shakli va turlarini takomillashtirish yo'nalishlarining ilmiy-metodik asosi;
- O'zbekiston respublikasi va xorijiy ta'lim strukturalarining ta'lim va metodik faoliyatini monitoring qilish;
- ilmiy-pedagogik maktab (maktablar) doirasida dozarb ilmiy muammolar bo'yicha tadqiqotlarni tashkil qilish;
- o'qituvchilar, aspirantlar, doktorantlar va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish;
- ilmiy-konsalting faoliyatni tashkil qilish;
- ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha ilmiy nashrlarni (qog'oz tashuvchilar va Internet tarmog'ida) tayyorlash.

Tayanch tushunchalar: axborot-o'qitish muxiti, o'quv muassasining virtual fazosi, elektron xodimlar bo'limi, elektron dekana, avtomatlashgan test tizimi, on-line auditoriyalar - seminarlar va maslahatlar.

4-ma'ruza:

O'quv material bazasining tarkibi va tuzilmasi, hisoblash texnikasi va axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta'limiy maqsadlarda samarali va havfsiz ishlatishning pedagogik va ergonomik shart-sharoitlari.

Reja:

1. Elektron o'quv kursiga qo'yiladigan talablar.
2. Elektron o'quv kursini amalga oshirish shakllari va uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni
3. Ta'lim serveridagi elektron darslik va elektron o'quv kursi: amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlash.
4. Ta'lim *Web-serverida* EO'K ni taqdim etish xususiyatlari.
5. Ta'lim *Web-serveri* kontseptsiyasi

Texnologik nuqtai nazardan, ta'lim jarayoni barcha qatnashchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olingan holda, o'quv-metodik resurslarni taqdim etishning metodik asoslangan printsiplarini ishlab chiqish va o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot hamda axborot resurslari tizimidan foydalanishni tashkillashtirish, bu yo'nalishdagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Pedagogik faoliyat amaliyotiga, o'quv va ish dasturlari; lektsiyalar va amaliy mashg'ulotlarning grafik-rejalari; entsiklopediya va lug'atlar; kartalar, sxemalar, illyustratsiyalar; masalalar va mashqlar to'plamlari, ularni bajarish bo'yicha metodik tavsiyalar; insholar, referatlar mavzulari va shuningdek; o'zini o'zi tekshirish uchun savollar va testlar; kompyuter eksperimentlarini va amaliy o'yinlarni o'tkazish uchun modellashtiruvchi dasturlar (ixtisoslashgan ma'lumotlar bazasidan foydalanish mumkin bo'lgan holda); o'qitish sifati va ta'lim olayotganlar rivojlanishi nazorat qilinishini olib borish dasturlari kabi turli elektron o'quv materiallaridan foydalanish keng kirib bormoqda.

Elektron o'quv kursiga qo'yiladigan talablar. Elektron o'quv kursi nafaqat ochiq va masofadan o'qitish tizimlarida, balki an'anaviy kunduzgi shakllarda – maktablarda, litsey, kollejlarda va boshqa o'quv yurtlarida faol joriy qilinayotganligi ta'kidlab o'tildi. EO'K turli maqsadlarda: o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlashini ta'minlash, o'quv faoliyatini tashkillashtirishga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish, o'qitish (ta'lim) sifatini nazorat qilish va hokazo maqsadlarda qo'llaniladi. Bunda, turli o'quv yurtlarida, turli-tuman predmet sohalarni qamrab oladigan, etarlicha katta miqdordagi EO'K ishlab chiqiladi. Biroq ba'zida bunday kurslarning mualliflari ularning tuzilishiga, EO'K ga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi o'zlarining sub'ektiv tasavvurlariga muvofiq tarzda yondashadilar. Bu, ba'zi hollarda, EO'K funksional nuqtai nazardan cheklanishiga olib keladi, bu esa, ularning yordamida o'qitish sifatini va o'quvchilar (ta'lim olayotganlar) rivojlanishini yaxshilash imkonini bermaydi.

Avtomatlashtirilgan ta'lim (o'quv) tizimi sifatida, EO'K lari quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- o'quv fanini o'rganish bo'yicha o'quvchi faoliyatini samarali boshqarish;
- o'quv-bilim jarayonini rag'batlantirish;
- o'quv materialini o'zlashtirish natijalariga bog'liq holda va ulardan har birining didaktik xususiyatlarini hisobga olib, o'quv-bilim faoliyati har xil turlari oqilona qo'shib olib borilishini ta'minlash;
- material (matn, chizmalar, audio, video, animatsiya) ni taqdim etishning turli texnologiyalarini oqilona birlashtirish;
- tarmoqda joylashtirishda, kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual seminarlar, diskussiyalar, amaliy o'yinlar va boshqa mashg'ulotlar tashkil qilinishini ta'minlash. Biroq, umumiy talablardan tashqari, darslik (o'quv) tipidagi elektron nashrlarga qo'yiladigan maxsus talablar ham bor. Ular shartli ravishda uchta asosiy toifaga – *mazmunga qo'yiladigan, strukturaga qo'yiladigan va texnik bajarilishga qo'yiladigan* talablarga ajratiladi.

Elektron o'quv kursi mazmuniga qo'yiladigan talablar. Elektron o'quv kursi mazmun nuqtai nazaridan, muayyan predmet soha taqdim etilish to'liqligini, foydalaniladigan pedagogik va metodik usullar samaradorligini ta'minlashi kerak, aynan:

- material hajmi etarli bo'lishini, Davlat ta'lim standartiga muvofiqligi, dolzarbligi, yangilik ekanligi va originalligi;
- faktografik, amaliy mazmun, kulturologik (madaniy) tashkil etuvchi, tizimlilik va yaxlitlik;
- foydalaniladigan metodikalar, nazorat tizimlari yordamida o'quv materiali taqdim etilishining pedagogik asosliligi, variativlik va EO'K da o'quvchining (ta'lim oluvchining) mustaqil ishlashini tashkillashtirishga tabaqalashtirilgan yondashuv printsiplariga mos kelishligi. Mustaqil ishlashni ta'minlash uchun EO'K ning alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, talablar tizimiga quyidagilarni kiritish zarur:
- maxsus sxemalar yordamida ta'lim oluvchi (o'quvchi) tomonidan mulohazalarning butun zanjirini kuzatish imkoniyati bo'lgan holda, nazariy materialni bayon qilishning aniq bir logikasini amalga oshirish;
 - vazifalar qo'yilishidagi alohida aniqlik;
 - vazifalar bajarilishi, o'quv va amaliy masalalarni hal qilish echimlari namunalarni (misollarini) batafsil sharhlash;
 - o'quv-tarbiya jarayonining barcha shakllari uchun, ta'lim olayotganlar bilish faoliyatini faollashtirishning turli metod va vositalaridan foydalanish (muammoli vaziyatlarni o'rganish, hal qilinishi boshqa manbalardan olinadigan bilimlar bo'lishini talab qiladigan tadqiqot xarakteridagi masalalarni (vazifalarni) qo'yish va sh.k.).

Elektron o'quv kursi strukturasi qo'yiladigan talablar. Zamonaviy tushunishda EO'K o'zida, O'AT vositalari bilan o'quv-ta'lim jarayoni qo'llab-quvvatlanadigan murakkab didaktik tizimni ifodalaydi. Tizim sifatida EO'K, avtomatlashtirilgan o'qitadigan (ta'lim beradigan) va nazorat qiladigan tizimlar, modellashtiruvchi dasturlar hamda O'AT boshqa dasturiy vositalari funktsiyalarini o'zida birlashtirishi mumkin. Tugallangan shaklda EO'K tizim sifatida quyidagi funktsional bloklarni o'z ichiga oladi: axborot-mazmun bloki; nazorat-kommunikativ bloki; to'g'rilovchi-umumlashtiruvchi bloklar. *Axborot-mazmun bloki o'z navbatida ikkita kichik blokni ichiga oladi. Axborot bloki:*

- o'rganilayotgan kurs yoki muayyan mavzu to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;
- berilgan kurs (mavzu) ni o'rganish muddatlari;
- berilgan o'quv fani bo'yicha mavzular va bo'limlarni o'tish grafigi;
- hisobot berish shakllari hamda vaqti;
- zamonaviy kommunikatsiya vositalari (elektron pochta, tele- va videokonferentsiyalar, b.lar) dan foydalanib, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish grafigi.

Mazmun bloki:

- o'quv rejalari, o'quv va ish dasturlari;
- darsliklar, masalalar to'plamlari, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalar, ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, xrestomatiyalar;
- seminarlarning mufassal rejalari;
- o'quv yurti elektron kutubxonasi va ta'lim Web-serveri resurslariga giperhavolalarni ham ichiga oluvchi asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, *Internet* materiallari;
- fan bo'yicha ijodiy ishlar mavzularining ro'yxati;
- elektron materiallar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar.

Elektron o'quv kursini amalga oshirish shakllari va uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni Ko'pchilik hollarda, EO'K ning barcha materiallari o'quvchiga elektron taqdim etishning istalgan ko'rinishida disketlarda, kompakt-disklarda, elektron pochta orqali taqdim etilishi yoki ta'lim serverida (lokal tarmoqda yoki *Internet* orqali) qo'yilishi mumkin. Modellashtiruvchi dasturlar, yakuniy testlashni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimlar va sh.k., ularning ishi serverning axborot resurslaridan foydalanishga asoslansa, istisno qilinishi mumkin. Jumladan, masalan, serverda joylashtirilgan testlash tizimlari, teskari aloqaning taxmin qilinadigan barcha kanallari orqali keladigan natijalar qayta ishlanishini ta'minlashi mumkin. O'quvchi ularni elektron pochta orqali uzatishi, disketda taqdim etishi yoki *Internet* orqali foydalanish mumkin bo'lgan interaktiv dastur yordamida testlashdan o'tishi mumkin. Tabiiyki, yuqorida yodga olingan (2.1-band) elektron o'quv-metodik vositalarning har bir turi uchun, bilimlarni taqdim etishning, foydalanuvchi interfeysini tashkil

qilishning o'z usullari va shakllarini, materialni etkazish, bilimlarni tekshirish metodlarini tanlashga to'g'ri keladi. Elektron o'quv-metodik materiallarni etkazish va teskari aloqa usullari foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq ravishda tanlanadi: operativ teskari aloqani ta'minlash uchun elektron pochtdan foydalangan holda, *Internet* dagi yoki lokal tarmoqdagi ta'lim serveridagi EO'K, disket yoki kompakt-diskdagi avtonom elektron darslik.

Ta'lim serveridagi elektron darslik va elektron o'quv kursi: amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlash. Hozirgi vaqtda amaliyotda, EO'Klarini loyihalashda asosan quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi:

- ma'lumotlar bazalari texnologiyalari (shu jumladan, multimediali) bilan birgalikda yuqori daraja dasturlash tilida loyihalash;

- gipermatnli texnologiyalar;

- ixtisoslashtirilgan instrumental vositalar yordamida loyihalash.

Yuqori darajadagi dasturlash tillaridan foydalanilganda, darslik dasturiy kompleks sifatida amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasida saqlanadigan didaktik materiallardan foydalanishni ta'minlaydigan alohida bajariladigan modulni ifodalaydi. Bunday mahsulot ko'paytirishdan ham, testlash tizimiga ruxsatsiz kirishdan ham yuqori darajada himoyalangan bo'ladi. Bu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, yuqori darajadagi dasturlash tillari (*Object Pascal, S++*) dan va ma'lumotlar bazalarini boshqarishning kuchli tizimlaridan foydalanish, har qanday mualliflik g'oyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Boshqa texnologiyalar bu narsani juda murakkablashtirib yuboradi yoki amalda mumkin qilmaydi. Bundan tashqari, dastur interfeysi (oyna turi, elementlarning uning ichida joylashishi, shriftlar) har doim o'zgarmas bo'ladi, ayni vaqtda gipermatnli hujjatning tashqi ko'rinishi, turli dasturlardan ko'rish uchun foydalanilganda, jiddiy farq qilishi mumkin.

Ta'lim Web-serverida EO'K ni taqdim etish xususiyatlari. Agar elektron o'quv kursi dastlab, alohida kompyuterda avtonom foydalanish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, uni tarmoqning (lokal yoki *Internet*) maxsus ajratilgan serverida joylashtirish uchun maxsus qayta ishlash talab etiladi. Avvaldan universal foydalanishga mo'ljallangan va shunga muvofiq, gipermatnli texnologiya asosida tayyorlangan kurslar bundan mustasno. Hozirgi vaqtda bunday yondashuv keng tarqalmoqda, shuning uchun elektron o'quv kursini ta'lim Web-serverida taqdim etish xususiyatlari nafaqat kursning o'zi bilan, balki axborotni va berilgan serverda o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikni tashkillashtirish uchun, qanday umumiy printsiplar tanlangani bilan ham bog'liq. Ta'lim serverlarining *Internet* tarmog'ida ishlashi bilan tanishib, hozirgi vaqtda o'quv materiallarini taqdim etishga ham, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikni tashkillashtirishga ham yagona yondashuv va standartlar ishlab chiqilmaganligini ko'rish mumkin. Taklif qilinayotgan axborot

kurslarining muhofazalanganlik darajasi, berilgan o'quv yurti o'quvchilarining tor doirasi uchun faqat parol bo'yicha cheklangan foydalanishdan tortib, ochiq foydalanish rejimida o'quv-metodik materiallar, ilmiy maqolalar va sh.k.larni to'liq taqdim etilishigacha oraliqda tebranadi.

Rossiya o'quv yurtlari ishni asosan quyidagi yo'nalishlarda olib bormoqda. • O'quv yurtining ixtisoslashtirilgan ta'lim *Web-server*ida va alohida bo'linmalarning serverlarida turli xil o'quv-metodik, namoyish qilinadigan va obzorli materiallar taqdim etiladi. O'quv yurti mutaxassislari ushbu holatda ta'lim serveri kontseptsiyasini mustaqil belgilaydilar

- Regional ta'lim *Web-server*lar bazasida axborot-ta'lim muhiti shakllantiriladi, uning mazmunan to'ldirilishi turli o'quv yurtlari pedagoglarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshiriladi

- Umum Rossiya virtual ta'lim makonini yaratish dasturi doirasida, joylarda Rossiya virtual universitetining regional markazlari tashkil qilinadi. Mavjud bo'lgan, shu jumladan, ushbu dasturda qatnashayotgan boshqa oliy o'quv yurtlaridagi elektron o'quv resurslari to'g'risidagi axborotdan barcha manfaatdor shaxslar – o'qituvchilar, talabalar *Internet* orqali foydalanishlari mumkin bo'ladi. Barcha regional markazlar o'quv resurslaridan foydalanish uchun yagona qobiqdan foydalanadilar. Ularning gipermatnli texnologiya yordamida rasmiylashtirilgan bo'lishi, ular uchun yagona cheklash hisoblanadi.

Ta'lim *Web-server* kontseptsiyasi. Makonda taqsimlangan ta'lim tizimini yaratishdagi ko'plab masalalarni hal qilishda, pedagoglar ham, o'quvchilar ham katta rol o'ynashlari mumkin.

Ta'lim *Web-server* negizidagi virtual o'quv markazini axborot jihatdan qo'llab-quvvatlash kompleksini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida, ikkita asosiy yo'nalishni belgilash mumkin. Birinchi yo'nalish – bu o'quv yurti serverida joylashtirilgan va virtual o'quv markazi ma'muriy, o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatining axborot jihatdan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan *axborot-ma'muriy Web-saytini* loyihalash. Bunday saytlar mustaqil ahamiyat kasb etadi, ularni rasmiy *Web-sahifalar* bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki ularning strukturasi virtual o'quv markazi faoliyatining xarakteri bilan belgilanishi kerak. Bu, masofadan o'qitish ham, ijodiy loyihalarni bajarish ham, tarmoq olimpiadalarini o'tkazish ham bo'lishi mumkin. Tegishlicha, bu yo'nalishlarning har biri uchun, sayt negizida shuni tashkillashtirishga alohida yondashuv talab etiladi. Aynan, pedagog axborot resurslaridan foydalanish tartibini rejalashtirishi, o'quvchilar bo'yicha ma'lumotlar bazasida serverda to'planadigan axborot yordamida, o'quv yoki ijodiy jarayon boshqarilishini va monitoring tashkillashtirilishini mulohaza qilib ko'rishi mumkin. Loyiha dasturiy jihatdan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi (oliy o'quv yurtlarida bu axborot texnologiyalari markazlarining yoki boshqa

o'xshash strukturalarning xodimlaridir). Albatta, bunday saytlar yaratilishini bosqichma-bosqich, pastdan yuqoriga texnologiyasida – o'quvchilarni oddiy ro'yxatga olishdan tortib, virtual o'quv markazi butun faoliyatini to'la ma'muriy boshqarishgacha, real amalga oshirish mumkin. Ikkinchi yo'nalishning mohiyati, ta'lim serverini *mazmunan to'ldirish* uchun turli elektron o'quv materiallari tayyorlashda ko'rinadi. Bu ishda asosiy rol, albatta pedagoglarga tegishli, lekin o'quvchilar uchun ham keng faoliyat maydoni ochiladi.

Bunday komplekslar ham professional, ham profilli chuqurlashtirilgan, yuqori sinflarning o'quvchilariga mo'ljallangan, masofadan va ochiq ta'lim uchun zarur, chunki ularning yordamida pedagogik mahoratning eng yaxshi namunalaridan va eng dolzarb bilimlardan foydalanish mumkin bo'ladi. Lekin, bu komplekslarni an'anaviy avtomatlashtirilgan o'quv tizimlarining muqobili sifatida emas, balki ularni to'ldiruvchi sifatida qarash kerak (tegishli texnologiyalardan foydalanish mumkin bo'lganda).

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni va mumkin bo'lgan foydalanuvchilar aniqlanishini hisobga olib, quyidagicha xulosa chiqaramiz: yaqin yillarda faqat *Internet* orqali o'qitishga tayanish mumkin emas. Metodik materiallar, ulardan universal – *Internet* orqali, lokal tarmoqlarda, o'quvchilarning alohida kompyuterlarida va olisdagi o'quv-maslahat punktlari va filiallarida foydalanish mumkin bo'ladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, taqdim etishning o'zi, zarur materiallarni pochta orqali oson yuborish, natijalarni turli rejimlarda: bevosita tarmoqda ishlashda serverda operativ qayta ishlash bilan, ularni keyinchalik qayta ishlash va tegishli shaklda xabardor qilish bilan, o'qitish sifati nazorat qilinishiga imkon berishi kerak. An'anaviy o'quv-metodik materiallardan elektron ko'rinishda foydalanish uchun, faqat pedagogik xarakterdagi muammolar (o'quv jarayonini tashkillashtirish shakllarini, ularning imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish, o'qituvchilarning manfaatdorligini shakllantirish) mavjud, texnologik muammolarni hal qilish esa, birmuncha oson. Materiallarni turli taqdim etishlarga (server uchun, lektsiyani auditoriyada kompyuter orqali taqdim etish uchun, disketlarda yoki kompakt-disklarda etkazib berish uchun) oson aylantirish imkonini beradigan standart vositalardan foydalanish, navbatdagi har bir elektron darslik uchun noyob instrumental vositalar ishlab chiqishga qaraganda istiqbolliroqdir.

Tayanch tushunchalar: elektron materiallar, metodik va texnologik tizimlashtirish, avtomatlashtirilgan ta'lim va nazorat tizimlari, modellashtiruvchi dasturlar va o'qitishning axborot texnologiyalari, gipermatnli texnologiya, *Web-resurslar*.

Nazorat savollari

1. Elektron o'quv kursiga qo'yiladigan talablar qaysilar?
2. Elektron o'quv kursi mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?

3. Elektron o'quv kursi strukturasi qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Elektron o'quv kursini amalga oshirish shakllari va uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni nimadan iborat?

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari.

Reja:

1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha
2. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar
3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish
4. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi

1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

2. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlariga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik,

muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli-tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga «mijoz-server» arxitekturasi, Internet-navigatordlar, tarmoq operasion tizimlari, telekommunikasiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiasiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o'quvchilarning psixofiziologik hususiyatlarini hisobga olish

Pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi o'quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O'z navbatida ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatiniing pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o'quvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi.

Fiziologik-gigiyenik sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar kompyuterda ishlashda bilim oluvchilarning aqliy ish qobiliyati o'zlashtiriladigan ma'lumotlar hajmiga teskari proporsional ravishda o'zgarib borishini e'tirof etadi. Bu quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- ko'rish organlariga tushadigan yuklamaning ortib borishi;
- yangiliklarni qabul qilishda yuzaga keluvchi dastlabki ruhiy ko'tarinkilikning tinib qolishi;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning yig'ilib borishi;
- katta miqdordagi ta'limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Bu holat ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishda zarur didaktik, psixofiziologik hamda metodik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zaruratini yuzaga chiqaradi.

Pedagogik dasturiy vositalarning psixofiziologik jihatdan samaradorligi birinchidan: talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi, tarbiyalanganlik va intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko'rsatkichlari, motivasion barqarorlik darajalari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik texnologiyalari va ta'lim vositalaridan rasional foydalanish ko'rsatkichlari, o'qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivasiyasi, ish qobiliyati bilan belgilanadi.

4. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Mavzuning asosiy tushunchalariga oid o'quv materiallarini yaratishda rastrli yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ular qatoriga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator kabilarni kiritish mumkin.


Dinamik illyustrasiyali o'quv materiallari yaratishda Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3d, Adobe Image Ready, Gif

Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier kabi maxsus dasturlardan foydalaniladi.

Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilish SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar bazalarini yaratishda Microsoft Excel, Microsoft Access kabi dasturlar qo'llaniladi.

1.1-rasmda pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tizimining bog'lanishi aks ettirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, matnli prosessorlar va maxsus dasturlar yordamida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda, foydalanuvchi undan qisman foydalana olmaslik bilan bog'liq muammolar tug'ilishi mumkin. Foydalanuvchi pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan dasturiy ta'minotga ega bo'lishi shart.



Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tarkibi

Pedagogik dasturiy vositalarni Internet tarmog'iga joylashtirishda HTML gipermatn hujjatlaridan foydalaniladi, chunki u Internet tizimining gipermatnli tili hisoblanadi hamda unda yaratilgan hujjatlarni o'qish dasturi Microsoft Windows ning operasion tizimi tarkibiga kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, bunda pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi. Multimedia dasturiy mahsulotlarini yaratish uchun juda katta tayyorgarlik zarur. Bo'lg'usi mutaxassis nafaqat ko'plab dasturlash tillarini, balki o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar yaratishning metodik tamoyillari bo'yicha bilimlarni egallashi lozim. Bu yerda tayyorgarlikni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- informatikaning umumiy asoslari;
- grafika bilan ishlash;
- ovoz bilan ishlash;
- integrasiyalashgan muhitda ishlash;
- o'rgatuvchi dasturlarni yaratish metodikasini egallash.

Bu bosqichlar o'zida multimediali o'rgatuvchi dasturlar yaratish ko'nikmasini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Biror bosqichni o'zlashtirmaslik o'rgatish jarayonini to'liq bo'lishini ta'minlay olmaydi. Agarda biror bosqich bo'yicha bo'lg'usi o'qituvchida bilimlar avvaldan mavjud bo'lsa, unda malakasini oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyat paydo bo'ladi.

Odatda o'rgatuvchi multimediali dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug'ullanadilar. Ammo bu dasturchilar o'zlari yaratayotgan mahsulot sifati bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lsalarda, ko'p hollarda o'qitish metodikasini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lishlari mumkin. Bu esa o'rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to'liq javob berishini ta'minlay olmaydi. Shu sababdan, dasturiy multimedia mahsulotlarni yarata olish malakasini shakllantirishda ko'p bosqichli tayyorgarlikni amalga oshirish zarur.

Ushbu tayyorgarlikning dastlabki bosqichi informatika fanini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, informatikaning umumiy asoslarini o'rganish ommabop dasturlar bilan tanishishni ta'minlaydi. Boshlang'ich bosqichda albatta MS Windows qobig'i va MS Office dasturiy paketi o'rganilishi lozim. Bu dasturlarni o'zlashtirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dastlabki qo'nikmalarini shakllantiradi. Bunda grafik qobiqlar bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishi oddiy va tushunarli dasturlar kompyuter texnologiyalarining amaliy metodlarini o'rganishni dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. MS Office komponentlari ma'lum ma'noda universal sanalgani uchun talabalarni axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlarida mustahkam asos bo'ladi.

Tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi – grafika dasturlari bilan ishlashga o'rganishdan iborat. Bu bosqich grafikaning turlariga mos ravishda bir qancha kichik bosqichlarga bo'linadi:

- rastrli;
- vektorli;
- uch o'lchamli;
- animasiyali.

O'rganish ketma-ketligi juda muhim emas, ammo animasiya asoslari bilan tanishishni statik grafikaning barcha turlarini o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqichdagi kabi grafikani o'rganishni eng ommaviy dasturlardan boshlash kerak. Adobe PhotoShop rastrli grafika dasturlari orasida keng ommalashgan bo'lib, bu dasturda rastrli rasmlar bilan ishlashning samarali metodlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, mazkur dasturning oxirgi versiyalari vektorli jarayonlarning ma'lum bir imkoniyatlariga ega. Agarda boshlang'ich ko'nikmalar zaruriyati bo'lsa, u holda Windows va Office ning standart dasturlari MS Paint va MS Photo Editor dan foydalanish mumkin. Bu ikki dastur ma'lum bir doirada PhotoShop ning imkoniyatlari va metodlarini takrorlaydi. Rastrli grafika vositalarini o'rganishda urg'uni yangi tasvirlarni yaratishga emas, balki tayyor tasvirlarni tahrirlashga qaratmoq darkor. Chunki, talaba o'rgatuvchi dasturlarni yaratishda rassom sifatida emas, balki tahrirchi, korrektor sifatida kasbiy faoliyat olib boradi.

Rastrli dasturlar birinchi navbatda skaner yordamida olingan yoki Internetdan olingan tasvirlarni tahrirlashda yordam beradi.

Ommaviyligi jihatdan Corel Draw dasturi ham keng tarqalgan. Adobe firmasining yanada sodda dasturlaridan biri – Illustrator sanaladi. Bu ikki dastur vektor grafikasining keng imkoniyatli vositasini tashkil qiladi. Vektorli dasturlar turli grafiklarni va chizmalarni yaratish, tahrirlash uchun samarali vositalardir.

Uch o'lchamli grafika umumiy dasturning majburiy qismiga kirishi shart emas, chunki u faqat real obyektlarni modellashtirishda ishlatiladi. Ammo, 3D ni o'rganishni aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash ta'lim mazmuniga kiritishni tavsiya etish mumkin. Eng ko'p tarqalgan uch o'lchamli redaktorlar sifatida 3D Studio Max va Maya larni qarash mumkin. Ular uncha murakkab bo'lmagan interfeysga ega. Rastrli va vektorli grafika bilan ishlash bilimlariga ega bo'lib, uch o'lchamli grafikada ishlash ko'nikmasini tezda o'zlashtirish mumkin.

Animasiyali grafikani yaratishni bir-biriga yaqin interfeysga ega yuqorida keltirilgan dasturlarda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ular asosan grafika turlari bilan farqlanadi: rastrli grafika uchun Adobe ImageReady , vektorli grafika uchun – Corel R.A.V.E., uch o'lchamli grafika uchun esa – 3D Studio Max o'rinlidir.

Navbatdagi bosqichda ovoz bilan ishlash metodlari o'rganiladi. Bu yerda ovozlarni yozish, tahrirlash va qayta yaratish masalalari muhim hisoblanadi. Bu masalalarni Sound Forge dasturi yordamida hal etish mumkin. Bu dastur ovozni yozish, fayllarni asosiy ovoz formatlariga o'tkazishni amalga oshiradi. Undan tashqari, mazkur dastur yordamida ovozlarni tahrirlash, ovozga maxsus effektlarni qo'shish imkoniyatlari ham mavjud. Ovozlarni eshitish uchun ommabop bo'lgan Winamp dasturidan foydalanish mumkin. Ammo multimedia mahsulotlarida ovoz namoyish etiladigan dastur bilan integrallashgan bo'lib, eshitish uchun maxsus vositalarni talab etmaydi.

Grafika yaratish va ovoz bilan ishlash bilimiga hamda metodlariga ega mutaxassis keyingi navbatda multimedia mahsulotlarini namoyish etish va yaratish vositalarini o'rganadi. Bunga birinchi navbatda HTML-dasturlash, ya'ni WYSIWYG dasturlari guruhiga mansub MS Word, MS FrontPage, Macromedia Dreamweaver bilan ishlash, MS PowerPoint da namoyishlar tayyorlash kiradi. Shuningdek, murakkabroq bo'lgan multimediali interaktiv namoyish yaratish dasturi bo'lgan Macromedia Flash, grafika va ovozni qayta ishlash, shuningdek, animasiya yaratish dasturi bo'lgan Adobe AfterEffect va boshqa dasturlarni tavsiya etish mumkin. Bu bosqichda talaba o'zi o'rgatuvchi multimedia ilovalarini yaratishni bilishi zarur.

Metodik bosqich bo'lg'usi mutaxassisga «qanday va qaysi vositalar bilan o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazish kerak?» degan savolga javob berishi zarur. Bu bosqichda ular o'zlarining grafika bo'yicha bilimlari asosida va kompyuterning audio imkoniyatlarini bilgan holda, qaysi vaziyatlarda axborotlarni qanday uzatish maqsadga muvofiqligini aniq bilishlari shart.

Tayanch so'zlar: PDV, namoyish qilish dasturlar, test dasturlari, o'rgatuvchi dasturlar, mashq qildirgichlar, Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablar: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda,

uzluksizlik va yaxlitlik, izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish, o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Nazorat savollar:

1. PDV fani haqida ma'lumot bering.
2. PDV turlari va tavsifi.
3. Mualliflik dasturlari deganda nimani tushirasiz?
4. PDV yaratish uchun keng foydalaniladigan dasturlarni sanab bering.
5. PDV yaratishga qo'yiladigan talablar haqida gapirib bering.
6. Pedagogik dastruriy trenajyorlar deganda nimani tushirasiz?
7. PDV yaratish jarayonida programmistlarning, metodik o'qituvchilarning va o'qituvchilarning ma'nosi.
8. Multimediya va gipermedia dasturlash vositalarning instrumental yaratish vositalari haqida gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboyev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.
2. To'rxonov F.B., Xamidov V.C. Simulyatorlardan foydalanilgan holda fizik jarayonlarni modellashtirish". Ta'lim muassalarida elektron axborot-ta'lim muhitini shakllantirishning dolzarb masalalari. O'zMU. – Toshkent: 2011.
3. Xamidov V.S. Fizikani masofali o'qitishda virtual laboratoriyasidan foydalanish. Yosh olimlar va iqtidorli o'quvchilarining ilmiy ishlari to'plami. (Fizika, mexanika-matematika, kompyuter texnologiyalari), Toshkent: 2005. – 204 b.
4. Xamidov V.S., Tigay O.E. Fizikani o'qitishda simulyatorlardan foydalanish. Fizika va astronomiya muammolari. O'qitish metodikasi. Respublika ilmiy va ilmiy-metodik konferensiya materiallari to'plami, 2010 yil 12-13 mart. Toshkent: 2010. – 294-496 b.
5. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o'quv yurtlarida qo'llash perspektivalari, <http://uz.infocom.uz/>
6. <http://www.ispringsolutions.com>
7. <http://Fizik.uz> , <http://vakhid.zn.uz>

Kompyuterli o'rgatuvchi tizimlar va o'rgatuvchi dasturlar haqida tushuncha, ularni yaratish texnologiyasi, bosqichlari va vositalari.

Reja:

- 1. Kompyuter o'quv ilovalari haqida tushuncha**
- 2. Elektron o'quv materiallari**

O'qitish axborot ta'minotini yaratish turli soha mutaxassislarini jalb etilishini talab qiladigan, uzoq muddatli va qimmat jarayondir. Bu holda axborot ta'minoti bo'shlig'ini **kompyuter o'quv ilovalarini** yaratish bilan amalga oshiriladi.

Kompyuter o'quv ilovalarini (KO'I) ni yaratish tavsifiga o'tishdan oldin, ularni ma'lum sinflarga bo'lib olamiz. Dastavval barcha KO'Ilarni ikki: *lokal texnologiyalar va internet texnologiyalar uchun* mo'ljallangan ilovalar guruhiga ajratamiz.

Lokal texnologiyalar deganda, alohida kompyuterda ishlash uchun mo'ljallangan disk yoki lokal tarmoq vositalari yordamida boshqa kompyuterga uzatish imkoniga egaqilib yaratilgan ilovalar tushuniladi.

Internet texnologiya global (Internet) tarmoqlari uchun ilovalarni o'zlari emas, ularning nusxalari foydalanuvchiga maxsus dasturlarning veb sahifalari orqali kirish mumkin bo'lgan ilovalar yaratishni ko'zda tutadi.

Lokal gipermatnli ilovalarni yaratish uchun hozirgi kunda ko'pginadasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, HelpWrirer Windows boshqaruvida ishlaydigan konstruktor. Windows uchun mo'ljallangan MS Access dasturi. Talabalarni joriy o'zlashtirishini nazorat qilish, o'qituvchilarning kafedra bo'yicha yuklamasini taqsimlash va boshq. Elektron o'quv nashrlar yaratish jarayoni ta'lim borasida oliy o'quv yurti faoliyatining etakchi yo'nalishiga aylanib bormoqda. Elektron o'quv nashrlarini (EO'N) yaratish murakkab didaktik talablarni o'z ichiga oladi, lekin hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari bu muammoni hal qilishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunda quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozim:

o kursning bo'limlar birligida namoyish qilinishi;

o mundarija bo'limlariga to'liq ruxsat etilishi;

o turli ko'rinishdagi ma'lumotlardan foydalanish;

o o'quv materialining o'rganuvchi xususiyatlari yuzasidan moslashuvchanligi.

EO'Nni yaratishda turli darajadagi o'rganuvchilar uchun individual ta'lim xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bunda qanday ma'lumot tasvirlanayapti, qanday qilib, qanaqa ketma-ketlikda, qaysi o'qitish uslubiyati qo'llanilmoqda – bularning hammasi ma'lum o'quv jarayonining individual chizgilari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda masofaviy o'qitishda keng ko'lamdagi elektron o'qitish tizimlari mavjud bo'lib, ularga misol sifatida VLE (o'qitishning virtual vositalari-Virtual Learning Environment), V2K- Bridge to Knowledge, WebCT, Learning Space, OpenClass, KADIS va Prometey tizimlari va boshqa shu kabi o'quv jarayonining asosiy vazifalarini avtomatlashtiruvchi tizimlarni keltirish mumkin.


Shu o'rinda biz uch darajadagi moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan EO'Nlarni yaratishni keltirib o'tmoqchimiz.

Birinchi darajada o'quv materiali bo'limlari oddiy HTML tilida, oq-qora rangda ikki o'lchamli tasvirlardan iborat, oddiy chizmalardan foydalanilgan holda tasvirlanishi mumkin.

Ikkinchi darajada o'quv materiali bo'limlari HTML, Java, JavaScript ilovalari, 2-D, 3-D va rangli tasvirlar, bo'limlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liklik holida keltirilishi mumkin.

Uchinchi darajada o'quv materiali har bir bo'limda HTML, Java, JavaScript ilovalari, 2-D, 3-D va rangli tasvirlar va matnlardan tashqari, ovozli, video, namoyishli tarzda va albatta testlash dasturi bilan birga keltiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan uch xil darajali EO'Nlarni yaratish o'quvchi bilim salohiyatini oshishi, masofaviy o'qitishda bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichini va darslikning o'quvchiga bo'lgan moslashuvchanlik darajasini yuqoriga ko'tarilishiga olib keladi.



1-rasm. Ko'p darajali elektron o'quv nashrlari texnologiyalari.

Yuqorida ko'rsatilgan tuzilishdagi elektron o'quv nashrlarining dasturiy qobig'inida ko'rsatilgan barcha imkoniyatlar kiritilgan bo'lib, unda foydalanuvchi uch xil darajadagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin. Dasturda foydalanuvchining bir darajadan ikkinchi darajaga o'tishi uchun qulay interfeys taklif etilgan. Bundan tashqari ushbu qobiqda foydalanuvchilarning elektron o'quv nashrlarini dasturga joylashtirishda qo'l mehnatini kamaytirish masalasini ko'rib chiqish oshirilgan. Masofadan o'qitish tizimining testlash dasturi ham turli ko'rinishlar va imkoniyatlarda yaratilishi zarur. Bunga o'rganuvchi bilimni to'liq tekshiradigan, noto'g'ri berilgan javobga turli variantlar keltiriladigan, turli bosqichdagi testlashni keltirish mumkin. EO'Nlarining moslashuvchanligi qanchalik yuqori va o'rganuvchi talabiga mos bo'lsa, shundagina masofadan o'qitish tizimida etarlicha ijobiy natijalarga erishsa bo'ladi.

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida kompyuter turishi xech kimga sir emas. Xozirgi kunda kompyuterlardan ta'lim tizimida asosan 4 yo'nalishda :

- O'rgatish ob'ekti sifatida
- O'qitishning texnik vositasi sifatida
- Ta'limni boshqarishda
- Ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda

Kompyuter imkoniyatlarini oshiruvchi yangi texnik va dasturiy vositalarning paydo bulishi sekin-asta "kompyuter texnologiyalari" atamasining "Axborot texnologiyalari" atamasi bilan siqib chikarilishga olib kelmoqda. Bu atama ostida elektron vositalar yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, va ishlatish jarayonlari tushuniladi. Shunday qilib, ta'limni axborotlashtirish deganda o'quvchilarga ma'lumotlar bazalaridagi, bilimlar bazalaridagi, elektron spravochniklar, arxivlar va entsiklopediyalardagi ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish tushuniladi. Bu terminalogiyaga mos xolda ta'lim axborot texnologiyalarini (TAT) o'quv jarayonini amalga oshirishda ishlatiladigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullarining yig'indisi sifatida ta'riflana buladi. Elektron vositalar tarkibiga qo'llanilishi TAT metodik qo'llanmalarida ko'rsatiladigan apparat, dasturiy va axborot komponentlari kiradi. TAT ning apparat, instrumental va dasturiy vositalarining jadal rivoji turli didaktik g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Lekin, o'zimizning va chet ellarning ta'limga ixtisoslashgan kompyuter tizimlarini ko'rib chiqar ekanmiz, ularning ko'pchiligini didaktik ko'rsatkichlarga ko'ra xattoki "qonikarli" ham deb bo'lmaydi. Gap shundaki, ta'limga muljallangan "yumshoq" mahsulotning sifat darajasi uni loyixalash jarayonida – AUT ma'lumotlar bazasini va elektron kitoblarni to'ldirayotganda, modellashtiruvchi tipdagi kompyuter tizimlari bilan ishlashni rejalarini tuzish, misol va masalalari ishlab chikish jarayonlarida belgilanadi. Afsuski, TAT ning metodik ta'minoti texnik vositalar rivojidan ancha ortda qolmoqda. Buni metodik jihatdan TAT ni psixologiya, pedagogika, telematika, kibernetika, informatika singari murakkab fanlar bilan ishlashi bilan tushuntirsa bo'ladi. Kasbiy ta'lim uchun TAT ni yaratish aynan uning mavzusi soxasini, dars o'tish metodikasini yaxshi bilish zarurligi bilan ham qiyinlashadi.

Tayanch tushunchalar: ilmiylik tamoyili, fundamentallik, tizimlilik, ko'rgazmalilik, elektron o'quv nashrlari, elektron darslik darajalari.

Nazorat savollari

1. *Elektron o'quv nashrlari moslashuvchanligi* deganda nimani tushunasiz?

Gipermatn va multimediyadan foydalanish metodikasi.

Reja

1. Dunyo oliy ta'lim mafkurasi.

2. Sub'ekt darajasi.

3. Intersub'ekt ta'lim.

4. Ta'limda zamonaviy Internet kommunikatsiyalarining qo'llanilishi.

«AKT» aloqa sohasida «interfaol» termini ko'p ishlatiladi. Hozirgi kunga kelib, interfaol ta'lim, qatnashchilarning birgalikda o'quv muhitida, shuningdek tajribaga almashishlari orqali ish olib borishga asosan ko'rilgan. An'anaviy ta'limga nisbatan interfaol ta'limda o'qituvchi va qatnashchi o'rtasidagi aloqa o'zgaradi: qatnashchilar tashabbuslari amalga oshirish o'qituvchilarni vazifasi bo'lib, o'qituvchisi faolligi qatnashchi faolligiga yon beradi. Interfaol texnologiyalarni qo'llab, ta'lim berishda foydalanuvchining kompyuter bilan aloqasi dolzarb va an'anaviy ta'limni progressiv rivojlanadi. Bu borada interfaol kommunikatsiyalarni yangi ko'rinishlari, ya'ni internet televidenie (IP TV) hozirda u Rossiyada ham joriy qilinmoqda, Skype, Sipnet va shunga o'xshash boshqa dasturiy ta'minotlar mavjuddir.

Sub'ektlilik bilan nafakat faollik kolaversa fundamental shaxsiy parametrlari bilan bog'lik, xudi iunaltirilganlik, ishkibozlik, intellektual tassavvur, sotsiallik, ishchanliklar kabi. bu shaxsiy psixologik nazariyasidan kelib chikadi.

Intersub'ekt ta'lim bulib, shaxsan muljallangan, maxsus ta'limni rivojlantirish xizmat kiladi. Intersub'ektiv ta'limda o'qituvchi va o'quvchining faolligi simmetrik bo'lishi lozim. O'qituvchi sub'ekt misolida namoyon bo'lar ekan, bunda u ta'lim jarayoni qatnashchilarining shaxsiy fundamental parametrlarini rivojlantirish uchun hizmat qiladigan sharoitlarni intersub'ekt darajasida yaratadi. Zamonaviy axborot tarmog'i olamida bunday sharoitlarga o'quvchi va o'qituvchilarning birgalikdagi tizimli izlanish va tadqiqot faoliyatlarini ta'lim tarkibini rivojlantiruvchi Internet kommunikatsiyalar vositasida tashkillashtirish misol bo'la oladi. Ushbu tarkib minimumi uchun belgilangan ta'lablar davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan.

O'quvchi topib olgan qiziqarli ma'lumot bilan birga —Pionerlar|| harakati sxemasini o'zida aks ettirgan multimedia faylini mavjud kommunikatsiya kanallari vositasida (elektron pochta, guruxli chat, telefoniya) boshqa o'quvchilar va o'qituvchiga uzatadi. U o'z ta'surotlari va hissiyotlarini nafaqat matn, balki ovoz, hamda video aloqa orqali mimika va qo'l harakatlari bilan etkazib berish imkoniyatigi ega (tadqiqotlarga ko'ra axborotning katta qismi aynan noverbal yo'l bilan uzatiladi). O'quvchi murojaatiga javoban yangi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Barcha hohlovchilar MOND haqidagi axborotni izlaydilar, Nyuton mexanikasi bilan solishtiradilar, ilmiy asosga ega shaxsiy gipotezalarini

shakllantirishga harakat qiladilar. Bundan tashqari o'quvchi berilgan mavzuga oid Internet-jamiyat (forum) tuzishi va muloqot chegaralarini yanada kengaytirishi mumkin. Natijada Nyuton mexanikasi yaxshiroq o'zlashtirilishi va klassik nazariya rivojlanishining yana bir yo'nalishi yuzaga kelishi mumkin. Bularning bari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini o'quv predmeti yordamida kuchaytirish imkonini beradi. Talabalar Internet orqali ma'lumot izlab, Internetda ko'p tarqalgan —keraksiz axborotlar chiqindixonalaril da vaqtlarini sarflamaydilar, ularning qiziqishlari ta'lim tarkibini boyitish, yangi info-kommunikatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va shaxslarini rivojlantirish uchun yo'naltiriladi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, intersub'ektiv ta'lim o'qituvchi, o'quv guruxi yoki sinf, o'quvchilar kitobi bilan chegaralanib qolmagan. Tarmoqning ixtiyoriy qiziqqan abonenti bilan kommunikatsion dasturlar vositasida muloqot qilish imkoniyati mavjud. Internet orqali ma'lum bir o'quv yurti talabasi turli davlatlar talabalari bilan tanishishi, o'z bilim saviyasini boyitishi, kelajakdagi izlanishlariga poydevor yaratishi mumkin. Internet-texnologiyalarning boshqa salbiy tomonlari ham yo'q emas. Masalan, hozirda Tarmoqda ilmga qarshi va ilm atrofidagi tasavvurlar (misol uchun, <http://anomalija.kulichki.ru>, <http://lc.kubagro.ra>, prometheus.al.ra) tarqalgan, shunga ko'ra intersub'ektiv ta'limda alternativ gipotezalarni kritik ravishda tahlil qilish, ular orasida konstruktiv g'oyalarni aniqlash imkoniyatlarini taxlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Tayanch iboralar: intersub'ektiv ta'lim, alternativ gipotezalar, ta'lim mafkurasi, interfaol, sub'ekt, intersub'ekt, telefon garnitura, elektron yon daftarcha, axborot chiqindixonalari.

Nazorat savollari

1. Hozirgi kunda dunyo oliy ta'lim mafkurasi qanday?
2. Sub'ekt darajasi nima?
3. Intersub'ekt ta'lim deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'limda zamonaviy Internet kommunikatsiyalarini qo'llash

Elektron ta'limiy vositalardan foydalanish metodikasi.

Reja:

1. Elektron pedagogika asoslari.
2. O'quv maqsadli elektron vositalar va ularning turlari.
3. Elektron darslik, uning turlari, yaratish tamoyillari.
4. Internetdagi elektron o'qitish vositalar.

Elektron pedagogikaning asosiy maqsadi shundan iboratki, zamonaviy AKT muhitda o'qitish-ta'lim jarayonini samarali tashkil etish. Elektron pedagogikaning predmeti pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim qo'yidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'limning maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, o'qitish shakl, usul va vositalari. Zamonaviy AKT ushbu barcha komponentlariga o'zini hissasini qo'shib kelmoqda.

An'anaviy va zamonaviy AKT muhitida tashkil etilgan ta'limni qiyosiy tahlili

	An'anaviy ta'lim	Zamonaviy ta'lim
1	Yangi avlodga bilim va tajriba berish	Talabalarning shaxsiy barkamolligini ta'minlash va rivojlantirish
2	Talabalarni hayotga tayyorlash	Qiyinchiliklarsiz yashashga o'rgatish
3	Hozirgidan kelgusida yaxshi bo'lishga tayyorlash	Doimiy o'zgarish jarayonida yashashga o'rgatish
4	Ta'lim maqsadi – bilim olish	Ta'lim maqsadi – o'zini rivojlantirish, barkamollilik
5	Talabalar maqsadini tayyor holda oladilar	O'zining huquqiy maqsadlarini qo'yishi va unga erishish yo'llarini tanlash
6	Talabalar nazorat turlaridan qochadilar	Obyektiv va o'z vaqtda nazoratga intilish
7	O'quv muassasalari o'zaro o'xshash	Har bir o'quv muassasasi yuksalish sari intiladi.
8	Aniq o'qituvchi	O'qituvchi tanlash imkoniyati

Elektron o'quv-uslubiy majmua – zamonaviy AKT muhitida fanning asosiy komponenti hisoblanadi, chunki unda fanning maqsad va vazifalari, mazmuni, o'qitishning zamonaviy shakl, usul va vositalari hisobga olingan.

O'quv maqsadli elektron vositalarni yaratish quyidagi uchta muhim bosqichning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi:

– mazmun bosqichi – bu bosqichda elektron vositalarning axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi;

– tashkiliy bosqich – bu bosqichda elektron vositalar yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, elektron ta'limni tashkil etish,

axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida foydalanuvchilar bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

– metodik ta'minot bosqichi – bu bosqichda elektron vositalardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

O'quv maqsadli elektron vositalarni yaratish quyidagi konseptual tamoyillarga ega bo'lishi lozim:

1. *Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili.*
2. *Integrasiya tamoyili.*
3. *To'laqonlilik tamoyili.*
4. *Yaxlitlik tamoyili.*
5. *Ochiqlik tamoyili.*

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin.

Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animasiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklar quyidagi qismlardan iborat bo'lishi zarur:

1. O'rgatuvchi qism – gipertekstga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.
2. Mashq qildiruvchi qism – xatolarni ko'rsatib beruvchi va to'g'ri xulosaga olib keluvchi.
3. Nazorat qiluvchi – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadi:

- ta'limni va o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta'minlashi;
- mustaqil ta'lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi;
- axborot-ta'lim resurslarini rivojlantirish va tezkor yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- matn, shuningdek, boshqa axborot materiallarini maxsus navigasiya (gipermatn) va illyustrasiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) orqali taqdim etilishi.

Elektron darsliklarning quyidagi belgilariga ko'ra o'zaro farqlash mumkin:

I. Foydalanish maqsadlariga ko'ra: jamoa bo'lib va individual foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo'lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim resurslarini talab qilmaydigan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular server

kompyuterga joylashtiriladi va ulardan kompyuter tarmoqlari (Internet yoki Intranet) orqali foydalanish mumkin.

Individual foydalaniladigan elektron darsliklar o'quv materiallarini o'qituvchining ishtirokisiz o'rganishga mo'ljallangan bo'ladi.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin.

II. O'quv materiallarini taqdim etishi bo'yicha: tartibli va ixtiyoriy. Tartibli elektron darsliklar ma'lum bir bo'lim o'quv materiallarini o'zlashtirmasdan keyingi bo'limga o'tishga imkoniyat bermaydi.

III. O'quv materiallari va axborotlarni yangilash bo'yicha: uzluksiz va davriy yangilanuvchi. Uzluksiz ravishda yangilanadigan elektron darsliklar odatda elektron o'quv bazalar (portallar, veb-saytlar va boshqalar)ga va elektron kutubxonalariga joylashtiriladi. Davriy yangilanadigan elektron darsliklar asosan elektron axborot eltuvchilar (disketa, CD-disk va boshqa) kabilar bilan taqdim etiladi.

O'quv jarayonlarini axborotlashtirish maqsadlariga ko'ra elektron darsliklar quyidagi tamoyillarga javob berishi kerak:

1. Kvantlash tamoyili: o'quv materiallarini mazmunan yopiq, minimal hajmga ega modullarga ajratish. Modullar bir necha tashkil etuvchidan iborat bo'ladi.

2. To'laqonlilik tamoyili: o'quv materiallarining asosiy mazmunini qamrab olgan har bir modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak:

gipermurojaatga ega kalit so'zlar;

nazariy materiallar;

nazariy materiallar bo'yicha nazorat savollari;

namunalar;

mustaqil yechish uchun masalalar;

modul bo'yicha nazorat savollari.

Shuningdek, modul tarkibiga quyidagi qo'shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

testlar;

nazorat ishi;

yordamchi ma'lumotnoma;


tahlillar.

3. Ko'rgazmalilik tamoyili: Elektron darsliklar modullari matn va vizuallashtirilgan materiallarning ma'lum nisbatini saqlagan holda illyustrasiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat bo'lishi zarur.

4. Erkin boshqarish tamoyili: talabalar kompyuter ekranidagi kadrlarning almashishini mustaqil boshqarishlari, zarur materiallarni istalgan marta ekranga chiqarishlari va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinashlari imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.

5. Moslashuvchanlik tamoyili: elektron darsliklar o'quv jarayonida ma'lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishni ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning murakkabligini va chuqurligini, uning amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib, qo'shimcha illyustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak.

6. Kompyuter ko'magi tamoyili: o'quv materiallarining mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadida talaba istalgan vaqtda kompyuter ko'magiga ega bo'lishi kerak. Bunday qo'llash kompyuter yordamida uzundan-uzun hisoblashlarni amalga oshirishda, turli grafiklar chizishda va olingan natijalarni istalgan bosqichda tekshirishda foydalidir.



Elektron darslikni modullari

Elektron darslik yaratishda amal qilinishi zarur bo'lgan tamoyillar (*kvantlashtirish, to'liqliligi, ko'rgazmaliligi, tarmoqlashuvi, boshqarish, moslashtirish, kompyuterli ta'minot, to'planuvchanligi*) hisobga olinib, Elektron darslik yaratish texnologiyasini loyihalashtirish 7 bosqichni o'z ichiga oladi:

1) konsepsiyasini ishlab chiqish (fan standarti va mashg'ulot o'tkazish metodikasiga tayanuvchi elektron darslik yaratishning asosiy g'oyasini ishlab chiqish, darslikning mazmunli qismini tuzish);

2) loyihalashtirish (ko'rinishida ishchi namunasini, axborot bloklari va ekran shakllari andozalari to'plamini, murojaatlar interfaolligini ta'minlovchi giperilovalar tuzilmasining tartibli sxemasini ishlab chiqish);

3) ekran shakli va axborot bloklari dizayni (aniq o'quv jarayoni, psixologik-pedagogik xususiyatlari, ergonomika talablari, o'quv materiallari tuzilishi va mazmuniga mos ravishda dizayn tuzilishini qurish);

4) o'quv materiallarini elektron shaklda tayyorlash va ularni bo'limlar bo'yicha bir ish seansi, ya'ni bir dars uchun mo'ljallangan elementar qismlarga–modullarga ajratish;

5) ilova tuzilmasi elementlarini to'ldirish (tayyorlangan materiallarni ishlab chiqilgan andozalar va ekran shakllariga joylashtirish, ilovalar tizimini to'ldirish hamda foydalanuvchi bilan qayta aloqa tashkil qilish);

6) test sinovlari va sozlash (har bir ilova, aloqa ishlari to'g'riligini va foydalanuvchi harakatiga dasturning javobini to'g'riligini tekshirish);

7) o'quv jarayoniga tatbiq etish (albatta, ta'lim beruvchilar va o'quvchilar refleksiya to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida elektron darslikni qo'llash).

Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potensialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Tayanch so'zlar: elektron pedagogika, pedagogik tizim, AKT muhiti, elektron o'kuv-uslubiy majmua, elektron darslik, elektron qo'llanma.

Savollar:

1. Elektron pedagogikani asosini nima tashqil qiladi?
2. AKT muhit deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik tizimga ta'rif bering. AKT pedagogik tizimning komponentlariga qanday ta'sir qo'rsatadi? Misollar keltiring.
4. Elektron ta'lim vositalarni sanab o'ting.
5. Elektron o'qitish shakllariga misol keltiring.
6. Elektron darslik nima?
7. Elektron darslikning komponentlarini sanab o'ting.
8. Elektron qo'llanma yaratishga qanday talablar qo'yiladi?
9. Elektron qo'llanma yaratishga qanday dasturiy taminotlardan foydalanamiz?
10. Ta'limiy internet resurslarini sanab o'ting.

Adabiyotlar:

1. Andreyev A.A., Soldatkin V.I. Prikladnaya filosofiya otkrytogo obrazovaniya: pedagogicheskiy aspekt. — M.: RIS «Alfa» MGOPU im. M.A.Sholoxova, 2002.
2. Bordovskaya N.V. , Rean A.A. Pedagogika. Uchebnik dlya vuzov — SPb: Izdatelstvo «Piter», 2000.
3. Zakirova F. va boshqalar. Elektron ukuv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. - Toshkent: OUMTV. – 2010. – 64 b.
4. Zakirova F. Metodicheskiye aspekty sozdaniya i ispolzovaniya web-sayta prepodavatelya // J.Pedagogik ta'lim- Toshkent, 2010.- №2.- S. 79-86.
5. Zakirova F. WEB 2.0. – innovasiya v obrazovanii // J. TATU xabarleri. 2012.- №2. S. 101-102.
6. Norenkov I.P., Zimin A.M. Informatsionnyye texnologii v obrazovanii. Uchebnoye posobiye.M.: Izd. MGTU im. N.Baumana.2002-336s.
7. George Siemens. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. December 12, 2004.

Amaliyot mashg'ulotlarining ishlanmalari

1-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi, vazifalari va imkoniyatlari.

Maqsad: Internetni ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullarini o'rganish.

Vazifalar:

1-qism: Ziyonet.uz, pedagog.uz va boshqa ta'lim portallari resurslari bilan ishlash.

- Ziyonet ta'lim tarmog'ining yaratilish omillari haqida ma'lumot toping;
- Ziyonet ta'lim tarmog'i va uning vazifalari bo'yicha ma'lumot toping;
- Ziyonet.uz ta'lim tarmog'iga kirishni va u bilan ishlashni o'rganing;
- Ziyonet.uz ta'lim tarmog'i tarkibi bilan tanishing;
- Ziyonet.uz ta'lim tarmog'ida ma'lumotlar qidirishni o'rganing;
- Ziyonet.uz ta'lim tarmog'ida o'z faningiz bo'yicha elektron o'quv materiallarni toping.

2-qism: Qo'yidagi saytlar bilan tanishing.

O'zbekiston ommabop yoki foydali sahifalari

1. <http://www.freenet.uz> – O'zbekiston Rgeyenyeti sahifasi. O'zbekiston, Markaziy Osiyoga oid turli resurslarga ega. Grantlari haqida ma'lumotlarni muntazam ravishda beradi. Elektron pochta xizmatiga ega.
2. <http://www.dreams.uz> – Elektron tabrik otkritkalari to'plami. Uning yordamida siz do'stlaringizga bayramga elektron tabriknoma yuborishingiz mumkin.
3. <http://www.esezam.com> – Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya informasion portali. Xududdagi Internet resurslari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Mamlakatlar haqidagi ensiklopedik ma'lumotlar keltirilgan.
4. <http://www.uzreport.com> – Informasion analitik portal. O'zbekiston, Internet resurslar, turizm, ish xaqidagi va xokazo ma'lumotlar keltirilgan.
5. <http://www.uzjobs.com> – O'zbekiston ish birjasi. Turli mutaxassislar bo'yicha vakansiyalar keltirilgan. Uning yordamida ish topish yoki zarur mutaxassisni topish mumkin. O'zingiz xaqingizdagi ma'lumotni kiritib qo'yishingiz mumkin.
6. <http://www.uza.uz> – O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi sahifasi. Unda turli mavzudagi ma'lumotlar va axborot agentliklari haqidagi ma'lumotlarni, yangiliklarni olish mumkin.
7. <http://www.cer.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar Markazi. Hozirgi kunda markaz Internetni rivojlantirish borasida ishlar olib bormoqda. Markaz Jahon Bankining proyeksi tanlovida g'olib chiqdi va uni amalga oshirmoqda.

8. <http://www.referat.uz> – Turli fanlardan referatlar to'plamiga boy sahifa. O'quvchilar va talabalarga juda foydali ma'lumotlar keltirilgan.
9. <http://www.bolalar.sarkor.uz> – Bolalar ommabop informasion sahifasi. Bolalarga foydali va qiziqarli bo'lgan turli ma'lumotlar keltiriladi.
10. <http://www.art.esazam.com> - O'zbekiston zamonaviy san'ati sahifasi.
11. <http://www.vlibrary.freenet.uz> – «Virtual kutubxona» elektron darsligi. Virtual kutubxona, Internet, elektron pochta, Internetda ma'lumotlarni qidirish, virtual kutubxona manzillari batafsil berilgan.
12. <http://www.ablsoft.uz> – Dastur ta'minot ishlab chiqarish, informasion texnologiya sohasida treninglar va seminarlar o'tkazish bilan shug'ullanuvchi kompaniya sahifasi.
13. <http://www.youthcenter.freenet.uz> – Yoshlar Internet markazi sahifasi. Unda markazda o'tkaziladigan mashg'ulotlar, turli anjumanlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.
14. <http://pravo.eastlink.uz> – O'zbekiston qonunchiligi yuridik informasion sistemasiga bag'ishlangan sahifa. Unda qonunlar, turli hujjat va kodekslar keltirilgan bo'lib, undan deyarli barcha korxonalar va kompaniyalar foydalanadi.
15. <http://www.asia-art.uz> – O'zbekiston zamonaviy san'at virtual galereyasi.

O'zbekistondagi ta'lim sohasiga oid saytlar

16. <http://pedagog.uz> – Nizomiy nomidagi TDPUning elektron kutubxona sayti
17. <http://book.uz> - Elektron adabiyoti kutubxonasi
18. <http://www.uzlib.uz>- UzLibrary elektron kitoblari. Kitoblarning elektron to'plami. Bepul va hammabop.
19. <http://biblio-world.doira.uz> -Kutubxona, jaxon kutubxonalari, E-kutubxonalari, kaleydoskop, axborot texnologiyalari va o'kuv zali sayti
20. <http://citybook.uz>- Elektronnaya biblioteka knig, uchebnoy literatury dlya shkol, kolledjey, liseyev i VUZov, a tak je na sayte razmeshenyey periodicheskiye izdaniya
21. <http://kutubxona.com>- O'zbek adabiyot elektron kutubxonasi
22. <http://www.ilmiy-maqola.uz> –ilmiy maqolalar, metodik ishlanmalar va darsliklar sayti
23. <http://www.microbio.uz> - Nachalo mikrobiologicheskix issledovaniy v Uzbekistane prihoditsya na 20-30 gody, kogda naibolsheye razvitiye poluchili medisinskaya i pochvennaya
24. <http://tanlov.uz> - portal spravochnoy informatsii po provodimym konkursam, grantam, stipendiyam, aksiyam i drugim meropriyatiyam dlya podderjki molodeji
25. <http://www.e-tarix.uz> - O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, tarix faniga oid qiziqarli ma'lumotlar, interaktiv dasturlar va xokazolar
26. <http://www.dissertant.uz> - Portal molodyx uchenykh posvyayemy: Odaryonnym studentam, Magistram, Aspirantom, Doktorantom, rabotayuyim nad dissertatsiyey i ix deyatelnosti
27. <http://www.ebooks.uz> – elektron darsliklar dunyosi

28. <http://fan.zn.uz> - Fan va texnika taraqqiyoti, konferensiya, seminarlar
29. <http://www.englishclub.uz> - Klub anglogovoryani v Uzbekistane. Forum, chat, stati i novosti
30. <http://bobokhujaev.tfi.uz> - Bu saytda ko'p qayta ishlangan informasion o'quv metodik ma'lumotlar bazasi, moliya iqtisod yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlarni o'qitish

Fond va xalqaro tashkilotlar

31. <http://www.fundersonline.org/index.html> – Onlayndagi fondlar.
32. <http://www.eurasia.org> – Yevrosiyo jamg'armasi sahifasi. Bu jamg'arma iqtisodni, kichik tabirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.
33. <http://www.irex.org> – IREX dastur sahifasi. Bu dastur asosida ilmiy xodimlar, o'qituvchilarga va mutaxassislariga ilmiy tekshirish ishlarini bajarish uchun tanlov asosida imkoniyatlar beriladi. O'zbekistonda bu dastur asosida ko'pgina mutaxassislar AQSh da turli mavzularni o'rganishga imkon oldilar.
34. <http://www.iatp.uz> – IATP dastur sayti. Bu dastur Internetni o'rganish va Internet bilan ishlash imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Bu dastur asosida foydalanuvchilar o'qishga va Internet bilan ishlash imkoniga ega bo'lmoqda.
35. <http://jica.org> – Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Agentligining sahifasi.
36. <http://www.undp.org> – Birlashgan Millatlar tashkiloti sahifasi.
37. <http://www.unesco.org> – YuNESKO tashkiloti sahifasi.
38. <http://www.worldbank.org> – Jahon banki sahifasi.
39. <http://www.who.ch> – Jahon sog'liq tashkiloti sahifasi.
40. <http://www.nobel.se> – Nobel fondi sahifasi.

3-qism: Mustaqil ishlash uchun vazifa:

Qaysi saytlardan foydalanib videoleksiya, elektron taqdimotlar, ma'ruza matnlar va boshqa o'quv materiallarni topish mumkin?

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: O`quv maqsadli elektron materiallarni yaratish va ularni sifatini baholash.

Maqsad: tinglovchilarning o`quv maqsadli elektron materiallarni yaratish va ularni sifatini baholash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish.

Vazifalar:

1-qism: Qo'yidagi savollarga javob toping:

7. O`quv maqsadli elektron materiallarning turlarini aniqlang.
8. Xar bir turdagi elektron materiallarning vazifalarini aniqlang.
9. Ularni yaratish uchun kompyuter dasturini belgilang.
10. O`quv maqsadli elektron materiallarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

2-qism: Quyidagi vazifalarni bajaring:

11. «Didaktik materiallar» nomli klaster tuzing.
12. «Didaktik materiallar» nomli elektron klasterini Power Point dasturida yarating.
13. Yaratilgan «Didaktik materiallar» nomli elektron klasterlarni baholang.

«Didaktik materiallar» nomli klasterga misol:



3 - amaliy mashg'ulot

Mavzu : Axborot-kommunikasiya texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash. O'quv tarbiya jarayonini, axborot-metodik ta'minotini va ta'lim muassasasini tashkiliy bohqarishni avtomatlashtirish

Ishning maqsadi: Axborot ta'lim muxitini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish texnologiyasini o'rganish.

Reja:

Reja

1. Axborot – ta'lim muxiti
2. O'quv muassasining virtual fazosi
3. Elektron dekanat va electron doskalar
4. Taqsimlangan kafedra

Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik axborot-o'qitish muxitini yaratish, asosan, ta'lim tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, postindustrial jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta'lim tizimiga o'tish imkoniyatini yaratadigan etarlicha murakkab bo'lgan texnik masala sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, axborot ta'lim muxitini yaratish faqat texnik masala emasligini inkor etib bo'lmaydi. Uni yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta'lim tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik potentsialini to'liq ishga solish kerak bo'ladi. Shu munosabatda, zamonaviy axborot-ta'lim muxiti ishlatilayotgan sharoitda pedagogika munosabatlarini xam xisobga olmoq lozim.

Nazorat savollari

1. Axborot – ta'lim muxiti nimalarni o'z ichiga oladi?
2. O'quv muassasining virtual fazosi nimadan iborat?
3. Elektron dekanat nima?
4. Taqsimlangan kafedra-chi?
5. Avtomatlashgan test tizimini yaratishdan maqsad?
6. On-line auditoriyalar nima?

4- amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'quv material bazasining tarkibi va tuzilmasi, hisoblash texnikasi va axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta'limiy maqsadlarda samarali va havfsiz ishlatishning pedagogik va ergonomik shart-sharoitlari.

Ishning maqsadi: Elektron o'quv kursi mazmuniga, strukturasi qo'yiladigan talablar, ta'lim serveridagi elektron darslik va elektron o'quv kursi: amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlashni o'rganish.

Reja

1. Elektron o'quv kursiga qo'yiladigan talablar.
2. Elektron o'quv kursi mazmuniga qo'yiladigan talablar.
3. Elektron o'quv kursi strukturasi qo'yiladigan talablar.
4. Elektron o'quv kursini amalga oshirish shakllari va uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni

5. Ta'lim serveridagi elektron darslik va elektron o'quv kursi: amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlash.
6. Ta'lim *Web*-serverida EO'K ni taqdim etish xususiyatlari.
7. Ta'lim *Web*-serveri kontseptsiyasi

O'quv-tarbiya jarayonida elektron o'quv kursi (EO'K) ning o'zni haqida gapirganda, turli ta'lim shakllari, shu jumladan, aralash ta'lim shakllari yonma-yon boradigan, ta'lim tizimi hozirgi holatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur, ular uchun esa, mustaqil ish tegishli metodik ta'minlanishi juda muhim. Bularga ko'ra, o'quv-metodik materiallarni elektron ko'rinishda taqdim etishning strukturasi va usuli, ulardan foydalanishning aniq bir shakliga bog'liq holda o'zgarib turishi kerak. Pirovardida, o'quv-metodik resurslarning katta hajmidan, ko'p sonli foydalanuvchilar foydalana olishini, shuningdek, individual yondashuv, o'qitishning faol metodlari va teskari aloqa qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash zarur.

Nazorat savollari

Elektron o'quv kursiga qo'yiladigan talablar qaysilar?

2. Elektron o'quv kursi mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
3. Elektron o'quv kursi strukturasi qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Elektron o'quv kursini amalga oshirish shakllari va uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'zni nimadan iborat?
5. Ta'lim serveridagi elektron darslik va elektron o'quv kursi: amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlash qanday amalga oshiriladi?
6. Ta'lim *Web*-serverida EO'K ni taqdim etish xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Ta'lim *Web*-serveri kontseptsiyasi nima?

5-6 Amaliy mashg'ulot.

Mavzu. Elektron testlar yaratish imkoniyatini beruvchi dastur bilan ishlash (4 soat)


Maqsad. Elektron testlar yaratish imkoniyatini beruvchi MultiTester System dasturi bilan ishlash.

Vazifa.

Nazariy ma'lumotni o'rganing va berilgan dasturda xar xil turdagi testlarni yarating.


MultiTester System (<http://multitester.org.ua>)

MultiTester Freeware (bepul) lisenziyasi ostida tarqatiladi.



18-rasm. MultiTester dasturining rasmiy sayti


Multi Tester - testlarni tayyorlash va o'quvchilardan mahalliy tarmoq orqali sinovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, sinaluvchilarni real vaqt davomida kuzatish va kelishilgan holda sozlangan mezonlar asosida avtomatik baholashlarni amalga oshiruvchi tizimdir.



19-rasm. MultiTester dasturining umumiy ko'rinishi

Tizim tarkibiga: Multi Tester Professor(o'qituvchi dasturi), Multi Tester Editor(savollar muharriri), Multi Tester Student(o'quvchilar dasturi) kiradi. Butun tizim "Kliyent/Server" texnologiyasi asosida ishlaydi. Barcha ma'lumotlar o'qituvchi kompyuteridagi ma'lumotlar omborida saqlanadi va zaruriy hollarda tarmoq orqali mijoz kompyuteriga jo'natiladi. mijoz va server o'rtasidagi aloqa garchi uni sozlashni usullari ko'p bo'lsada avtomatik sozlanadi. Odatda "juda aqli" yoki "juda qiziquvchan" o'quvchilar topilib qoladi(to'g'ri javoblarni ko'rish, o'zgartirish, kalitlarni olish va h.k.). Shu bois o'quvchining kompyuterida ma'lumotlar saqlanmaydi. Studentning ikkinchi ekzemplari ishlatilishigyo'l qo'yilmaydi. Uni yopish esa Professor muhitida yoki server bilan aloqa uzilganda amalga oshirish mumkin. Tizim savollarni bir qancha dasturlar fayllaridan import qilishi imkoniga ega. Shu bilan birga test natijalarini xotirada saqlash, ko'rish va chop etish mumkin.

Test konstruktor 3.2. Test konstruktor dasturi – bilimlarni tekshirishdagi universal tizimdir. Ushbu o'quv muassasasidagi kabi uyda ham foydalanish mumkin va u savol – javoblarning cheklanmagan miqdoridan foydalanish imkonini beradi. savollarning 5 xil tipini qo'llab-quvvatlaydigan bu dasturda musiqa, tovush, rasm va video roliklardan ham foydalanish mumkin. Istalgan ma'lumotlarni printerdan chop etish yoki turlicha kengaytmali fayllarga (Word, Excel, Access, HTML, XML, txt, Paradox, Dbase va b.q.) eksport qilishi mumkin.




20-rasm. Dastur interfeysi

O'z ismi familiyasi bilan ro'yxatdan o'tish orqali bir necha kishi bitta kompyuterda sinovdan o'tishi mumkin. Dastur juda qulay va tushunarli interfeysga ega.

Wondershare quiz creator dasturining o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari

Wondershare QuizCreator dasturini Xitoylik dasturchilar tomonidan yaratilgan bo'lib, dastur orqali elektron nazorat (o'z ichiga 9 hil) turlarini va so'rovlar tashkillashtirish va yaratish imkoniyatini beradi.



21-rasm.

- Dastur imkoniyatlari
- Test topshiruvchilarni ro'yhatdan o'tkazish;
- Test topshirish uchun belgilangan mavzuni namoyish etish;
- Savollarni tasodifiy tanlash;
- Har bir savol uchun javob variantlarini o'rin almashtirish;
- Bir necha mavzuni o'z ichiga olgan guruxli mavzuli test olish;
- Savollarni ballashni mavzu miqyosida hisoblash;
- Savollarni ballashni savol miqyosida hisoblash;
- Vaqtni mavzu miqyosida hisoblash;
- Vaqtni savol miqyosida hisoblash;
- Test topshirishlarni hisobga olish;
- Savollarga orqaga qaytmasdan bir marta javob berish;
- Savollarga orqaga qaytish orqali bir necha marta javob berish;

- Audio va video materialli savollarni namoyish etish; (wav, mid, mp3; 3gp, dat,avi, mpeg ...)
- Test topshiruvchilar harakatlarini bayonlashtirish;
- Natijalarni test jarayonida ekranda ko'rsatish;
- Savollarga javob berish jarayonida kerakli izohlar va tushuntirishlar berish;
- Test topshiruvchilar natijalarini umumiy bazada to'plash;
- Savollarga javob berishda tasdiq so'rash;
- Sana va vaqt ma'lumotlarini serverdan olish;
- Javob berish jarayonida rasmlar, audio va video materiallarni o'kish;
- Ekranda test natijasini bildiruvchi indikatorni namoyish qilish;
- Ixtiyoriy tilli interfeys;
- Natijalarni bayonlashtirish va umumiy bazada jamlanishi ta'minlash;
- Bayonnoma va qaydnomani matnga chiqarish;
- Savollarni taxrir qilishda eksport va import qilish, xususan:
- Flash formatida;
- LMS tizimlari uchun SCORM standartiga mos keluvchi formatida;
- HTML sahifa orqali ochiladigan formatda;

Shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan exe formatiga ugirishi mumkin.

Shuningdek, elektron ko'rinishda yaratilgan testlarni MS Word va Excel formatlariga eskport qilish imkoniyati ham mavjud.



1-rasm. Wondershare QuizCreator dasturining har xil formatlarda chop etishi


Qo'yida keltirilgan fikrlarni (ma'lumotlarni) tushunish oson bo'lishi uchun oldindan kelishib olsak, test nazoratlari, test savollari, elektron test savollari deganda Wondershare QuizCreator dasturi orqali yaratish mumkin bo'lgan 9 turdagi nazorat turlari nazarga tutiladi.

Test topshiriqlarini bajarib bo'lingandan keyin o'quvchining olgan natijalarini tahlil qilishning qo'lay ko'rinishda ekanligi. Talaba agar internet orqali test nazoratida qatnashayotgan bo'lsa, u holda talaba olgan natijalarni o'qituvchining pochtasiga to'liq hisobotini yuborish mumkin.



2-rasm. Wondershare QuizCreator dasturi talaba olgan natijalarni ko'rsatilgan joylarga yuborishi

Dastur orqali nazorat turlarining shakli har xilligi, dasturda 9 xildagi nazorat turi (24-rasm).



3-rasm. Savol turlarining ingliz tilidagi nomalanishi



4-rasm. Savol turlarining mos ravishda o'zbek tilidagi nomalanishi

Elektron nazorat savollariga (javoblariga) multimedia elementlarini joylashtirish ham mumkin, xususan: Rasmlar, tovush fayllari, videoroliklar, matematik formulalar va ekrandagi ma'lumotni rasmga olish imkoniyati.

Talabalar test topshiriqlarini topshirish vaqtida ular savollarni yodlab qolishlari va ulardan keyin topshiradigan talabalarga tushgan savollarni aytishlari mumkin. Aynana shunga o'xshagan holatlarni bartaraf etish maqsadida Wondershare QuizCreator dasturida savol va javoblarni Randomizatsiyalash (aralashtirib yuborish) imkoniyati mavjud.



5-rasm. Test topshiriqlariga vaqt belgilash ikki hil holatda amalga oshirish mumkin.

Umumiy test savollariga bitta vaqtni bilgilash, masalan: 20 ta testning hammasi javob berish uchun 30 minut ajartish mumkin.

Har bir test savoliga alohida- alohida vaqtni belgilash mumkin, masalar 1-savolga 30 sekund, 2- savolga (agar qiyin savol bo'lsa) 60 sekund ajratish mumkin.

Wondershare QuizCreator dasturi orqali o'qituvchi test jarayonni modellashtirish imkoniyatiga ega. Ya'ni fan o'qituvchisi test bo'lish vaqtidagi ssenariyasini yaratishi mumkin boshqacha aytganda adaptivlashgan test oluvchi dasturni yaratishi mumkin.

Agar siz bu saytga tashrif buyursangiz (2013 yil 9-may gacha bo'lgan ko'rinishi) qo'yidagis rasmda keltirilgan sahifani ko'rasiz (27-rasm)



6-rasm. Wondershare QuizCreator dasturining rasmiy saytining ko'rinishi

Shu saytdan siz 30 kun davomida dasturni bepul ishlatish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu vaqt ichida siz bemaol o'zingizning faningizdan elektron nazoart turlarini tashkillashtirishingiz mumkin bo'ldi.


Agar dasturni sotib olish niyatida bo'lsangiz \$ 169,95 (350776 so'm 86 tiyin) narhda sotib olishingiz mumkin.

Dasturni ko'chirib olganingizdan so'ng dasturni ishga tushursangiz ("Pusk" - "Vse программы" - "Wondershare" - "QuizCreator" - "QuizCreator"..) qo'yidagi oyna chiqadi.

Bu oynadan ko'rinib turiptiki, foydalanuvchi :

Elektron nazorat turlarini tashkilashtirishi mumkin, buning uchun **Create a new quiz** tugumasini bosish orqali amalga oshiradi;


So'rovnoma tashkillashtirishi mumkin.



7-rasm. Dastur ishga tushishi bilan chiqadigan oyna

Biz bu ishimizda elektron nazoart turlarini tashkillashtirish, yaratish bo'yicha shug'illanamiz, shu sababi "so'rovnomani" bandini tanlamaymiz.

Asosiy e'tiborimizni birinchi bandga (Create a new quiz) qaratamiz. Create a new quiz tugmasini bosganimizdan so'ng qo'yidagi oyna yuklanadi:



8-rasm. Wondershare QuizCreator dasturining umumiy ko'rinishi

Question - bu yerda elektron nazorat turlarining birini yaratish imkoniyatini beradi.

Quiz Properties – Yaratiladigan (yaratilgan) testlarning umumiy sozlash bandi;

Player Template – testlarning umumiy ko'rinishini (dizaynini) belgilaydigan band;

Preview – yaratilgan testni oldingi qarab chiqish bandi;

Publish – nashr etish bandi (bu yerda yaratilgan testni:

Flash formatida;

LMS tizimlari uchun SCORM standartiga mos keluvchi formatida;


HTML sahifa orqali ochiladigan formatda;

Shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan exe formatlariga nashr etish mumkin bo'ladi). Va nihoyat, menyu ostida yaratilgan testlarni turiga qarab, qiyinlik darajasiga

qarab, guruhlashtirish imkoniyatini beruvchi band joylashgan.



tugumasmini bossak, oynasi yuklanadi.




9-rasm. Fayl menyusining ko'rinishi

Bu yerda yangi test yaratish, yaratilgan testni ochish, saqlash, o'zgacha saqlash, yaratilgan testni Import qilish (boshqa formatdan) va dasturdan chiqish mumkin. Oynaning o'ng tomonida oldin yaratilgan (ochilgan) test onalarini yuklash mumkin.

Elektron nazorat turlarini yaratishdan oldin keling **Quiz Properties** (yaratiladigan (yaratilgan) testlarning umumiy sozlash) bandidan boshlaylik.


Quiz Properties menyusini (bandini) tanlaymiz, 5 ta sarlovhadan tashkil topgan sozlash oynasi chiqadi:



10-rasm. Quiz Properties menyusining ko'rinishi


Quiz information –Yaratiladigan (yaratilgan) testga oid umumiy ma'lumotlar bandi.

Information bo'limida yaratilayotgan testning nomi, test yaratgan tashkilot yoki muallif haqida ma'lumotlarni shuningdek, uning elektron pochta, tashkilotning bo'limining rasmiy veb saytinging adressini va biror bir izohlar kiritish mumkin bo'ladi:



11-rasm. Test muallifi haqida ma'lumotlarni kiritish oynasi

Introducion - test yuklanganda chiqadigan eng birinchi oynasidagi ma'lumotlarni shu yerda kiritishingiz mumkin.



12-rasm. Introduction oynasi

Bu yerda foydalanuvchiga test haqida umumiy ma'lumotlar kiritiladi. Kiritiladigan ma'lumotlar:

Matn ko'rinishida (bu yerda matn shriftning qalinligini, rangini ulchamini sozlash mumkin)


Shuningdek, dasturda **Introducion** bandida yozilgan matnni ingliz talaffuzida (tilida) kompyuter tomonidan o'qilishi mumkin. **Advanced Setting** ga belgilash kiritsak, yoziladigan audio faylga oid qo'shimcha sozlash bandi paydo bo'ladi. Bu yerda siz yoziladigan audio faylning balandligini va kompyuter orqali o'qiladigan matnni qaysi agent o'qishini tanlashingiz mumkin bo'ladi.

Media- bu yerda : **All files (*.jpg;*.jpeg;*.bmp;*.png;*.qif;*.emf;*.wmf;*.flv;*.swf)** formatidagi medea fayllarni yuklash mumkin.

Shuningdek, kompyuter oynasidagi vaziyatni Capture opsiyasi orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Display quiz statistics bandini tanlash orqali test boshlanishida yuklanadigan oynaning eng birinchi sahifasida test haqida statistik ma'lumotlarni chiqarish mumkin (test savollar soni, maksimal to'plash mumkin bo'lgan ball, o'tish bali, ajaratilgan vaqtlar qo'rsatilgan bo'ladi).

Quiz Settings – testni sozlash sarlavhasi orqali tushadigan testlarning qo'yida ko'rsatilgan sozlashlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi:




13-rasm. Test dasturini umumiy sozlash oynasi

Passing Rate – maksimal to'plash mumkin bo'lgan saralash balining foizini kiritish mumkin. Odatda 56 % utish bali sifatida belgilaniladi, bu bal utish balini beradi. Agar hoxlasangiz utish balini fanning alohida xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa keretiriyalar bilan belgilashingiz mumkin bo'ladi.

Time Limit – test topshirish vaqtini cheklash (o'zgartirish) mumkin. Agar cheklash niyatida bo'lmasangiz u holda bu opsiyasni belgilamang ("ptichka" qo'yish orqali). Bu opsiya ayniqsa berilayotgan testlarni vaqt bilan chegaralashda, savollarning qiyinlik darajasidan kelib chiqqan holda ularga ketadigan vaqtning kamligi yoki o'zoqligini belgilash mumkin bo'ladi.

Agar **Options** tugumasini bossangiz qo'yidagi oyna chiqadi:




14-rasm. Time Limit belgilash oynasi

Bu yerda:

Barcha test savollari uchun umumiy vaqt belgilash mumkin

Har bir test savoliga (qiyinlik darajasiga ko'ra) alohida vaqt belgilash mumkin.


Randomization- test savollarini randomizatsiyalash (aralastirish) imkoniyatini beradi.



15-rasm. Randomization oynasi

Bu yerda ikk hil usulda test savollarini “aralashtirish” imkoniyati mavjud:

Yaratilgan testlar bazasidan test turlariga qarab (eslatma: dastur orqali 9 turdagi nazorat turlarini yaratish mumkin) tushadigan testlar soni kesimida sonini aniqlash. Maslan: 50 ta test savollari tuzilgan ularning 30 tasi bitta to’g’ri javobli testlar, 8 tasi bir nechta to’g’ri javobli, 12 tasi moslikni aniqlash bo’yicha savollar bo’lsin. Imtixon vaqtida jami 50 ta test savolidan aytaylik faqat 15 tasi yuklansin va yuklanganda ham Savol turidan kelib chiqqan hollda mos ravishda bitta to’g’ri javobli testlardan (30 tadan) faqat 10 tasi ixtiyori ravishda; ber nechta to’g’ri javobli testlardan (8 tadan) 3 tasi ixtiyori ravishda va nihoyat moslikni aniqlash bo’yicha savollardan (12 tadan) faqat 2 tasi ixtiyori ravishda yuklansin. Ayni shu masalasini amalga oshirish uchun **random question before publishing** opsiyasini tanlash orqali amalga oshiriladi, Options tugmasi bosilsa qo’yidagi oyna chiqadi:



16-rasm. Random question before publishing opsiyasining ko’rnishi

Bu oyna orqali test savollarini “aralashtirish” bo’yicha ikkita sozlash yo’li mavjud.

1. Hal qiladigan vazifasi: “Imtixon boshlanganda, umumiy test savollaridan nechtasi yuklansin”

2. Mavjud testlar tipiga qarab tushadigan test savollari soni kesimida yuklash.

Answer Submission – test savollariga berilgan javoblari bo’yicha sozlash oynasi

17-rasm. Answer Submission oynasining ko’rinishi

Submit one question at a time bandi tanlansa, imtixon vaqtida test savolining har biri birdan baholanadi, agar test savoliga to’g’ri tanlangan bo’lsa, to’g’riligini ko’rsatadigan “Siz to’g’ri javob berdingiz” ma’nosida xabar chiqadi aks holda javob noto’g’ri ekanligi haqida xabar chiqadi.

Agar **Submit all at once** opsiyasi tanlansa, u holda imtixon tugagandan keyingina umumiy to’plangan ballar hisoboti chiqadi.

18-rasm. Feedback- teskari aloqa.

Savollar o'rtasida keyingi savolga utish “**next**” tugmasi paydo bo'ladi.

Shuningdek, test topshirayotgan foydalanuvchi natijalarni ohirida ko'rishi yoki (va) test topshiriqlarini faqat bir marta belgilashiga ruhsat berish uchun tegishli opsiyalarni tanlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan o'zgartirishlar kuchga kirishi uchun “OK” tugmasini bosish yoddan chiqmasin.

Quiz result – test natijasida (ohirida) bo'ladigan jarayonlarni sozlash oynasi

Bu opsiya orqali test jarayoni tugagandan keyin talabaga (o'quvchi yoki foydalanuvchi) test oluvchi dastur qanday ma'lumotni chiqishini belgilaydi. Umumiy ko'rinishi qo'yidagi rasmda keltirilgan:

19-rasm. U ikki qismga bo'linadi:

According to the result- opsiyasi tanlansa test natijasiga ko'ra ya'ni foydalanuvchi sarlash (o'tish) balidan ijobiy o'tgan taqdirda chiqaradigan (namoyon bo'ladigan) xabar matnini yozish (sozlash) oynasi chiqadi aks holda foydalanuvchi sarlash (o'tish) balidan o'tmagan taqdirda chiqaradigan (namoyon bo'ladigan) xabar matnini yozish (sozlash) oynasi chiqadi.

Despite the result- opsiyasi tanlansa foydalanuvchi qanday natija olishidan qat'iy nazar chiqadigan ma'lumot (xabar) oynasiga yoziladigan matn yozish oynasi chiqadi.

Quiz statistics- test yakunlangandan keyin, test hisobotini ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik opsiyasi hisoblanadi.

Quiz Statistics


Display quiz statistics on the Result page.

20-rasm.

Test hisoboti bu foydalanuvchi (test topshirayotgan o'quvchi yoki talaba nazarga tutilmoqda) topshirgan test savollarining necha foizi to'g'ri, test topshirish uchun qancha vaqt sarfladi, olgan bali va foizi, nechta test savoli berildi degan ma'lumotlar jadval qo'rinishda beriladi.


Finish button –bu yerda test (imtihon) tugagandan so'ng “*Chiqish*” tugmasi bo'lish yoki bo'lmaslikni aniqlashda, shuningdek Agar foydalanuvchi (o'quvchi yoki talaba) test (imtihon)ni saralash balidan yuqori balni to'plagan bo'lsa, avtomatik ravishda biror bir internet saytiga (sahifasiga) yuborish mumkin aks holda boshqa sayti (sahifasi)ga yuborish mumkin bo'ladi.

Rasmda ko'rsatilgan maxsus joyga tegishli sayt manzilini kiritish kerak bo'ladi.



21-rasm. Question properties –savollarni sozlash oynasi.

Bu yerda savollarga beriladigan ijobiy ballar miqdori, noto'g'ri berilgan javobga beriladigan(yoki berilmaydigan) jarima ballarini, test savollarining qiyinlik darajasi, test majmuasidagi mavjud test savollari va javoblarining shrifti, shrift turi va rangi test savollariga berilgan javob turiga qarab bo'ladigan “teskari aloqa” matnlarini sozlash oynasidagi ma'lumotlarni kiritish (o'zgartirish) imkoniyatini beradi.




22-rasm. “Teskari aloqa” matnlarini sozlash oynasi

Teskari aloqadagi ma'lumotlar bandida multimedia elementlarini, berilgan javoblarga izohlarni matematik formulalar, audio fayllar orqali boyitish mumkin bo'ladi.

Wondershare Quiz Creator dastur muhitida testlar yaratish


Test yaratuvchi dasturlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, test yaratish imkoniyatini beruvchi ko'pgina dasturlarda matematik ifodalarni kiritish imkoniyati mavjud emas. Bu esa aniq fanlar bo'yicha nazorat turlarini yaratish (formulali test savol(javob)larini kiritish) imkoniyatini bermaydi. Wondershare QuizCreator dastur muhitida esa fizika, matematika va boshqa fanlardan (formulalari mavjud bo'lgan savol(javob)lar) elektron nazorat turlarini tashkillashtirish mumkin.

Buning uchun dasturning menyular satrida (savol yaratish oynasida) qo'yida ko'rsatilgan menyular chiqadi:



23-rasm. Menyular satrining ko'rinishi

Bu yerdan Equation menyusini tanlaymiz va natijada qo'yidagi oyna chiqadi:




24-rasm. Equation menyusining ko'rinishi

Multiple Choice- tipidagi savol (savolning javobi faqat bittasi to'g'ri bo'lgan tipdagi savol). Bitta javobni tanlash - test savoli javob variantlari orasida yagona javobni belgilash. Bunday tipdagi savolning faqat bitta to'g'ri javobi bo'ladi. Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:




25-rasm. Multiple Choice tipidagi savolning umumiy ko'rinishi

Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyular osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Multiple Choice** tanlaymiz:



26-rasm. Multiple Choice tipidagi savolini tanlash oynasi
Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:



27-rasm. Multiple Choice tipidagi savolini yaratish oynasi


Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savol va javob matnini kiriting. To'g'ri javobni belgilab qo'yish yoddan chiqmasin. To'g'ri javoblarni qayerga kiritish muhim hisoblanmaydi, chunki test jarayonida dasturning o'zi tasodifiy ravishda aralashtirib tashlaydi. Savol va javobning matn kiritish joyida rasm, multimedia elementarini (tovush, video va fleysh fayllarni) joylashtirish imkoniyati ham bor.

Barcha amallarni bajarib bo'linganidan keyin yaratilgan savol turini saqlaymiz. Test savoli kiritilmagan bo'lsa yoki to'g'ri javob belgilanmagan bo'lsa, saqlamoqchi bo'lgan faylingiz saqlanmasligi mumkin.


Savol turi: Multiple Response (Bir nechta javobni tanlash - test savollariga javob variantlari orasida bitta va undan ortiq javobni belgilash).

Bunday tipdagi savol tiplarida berilgan savolda bir vaqtning o'zida bir-nechta to'g'ri javoblar bo'lishi mumkin.

Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:



28-rasm. Multiple Response tipidagi savolning umumiy ko'rinishi
 Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi
 menu osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Multiple Response** tanlaymiz.
 Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:



50-rasm. Multiple Response tipidagi savolini yaratish oynasi

Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savol va javob matnini kiriting. To'g'ri javoblarni belgilab qo'yish yoddan chiqmasin. To'g'ri javoblarni kanday ketma-ketlikda kiritish muhim emas, chunki test jarayonida dasturning o'zi tasodifiy ravishda javoblarni aralashtirib yuboradi (tashlaydi). Savol va javobning matnini kiritish joyida rasm, multimedia elementlarini (audio, video yoki fleish fayllarni) joylashtirish (kiritish) imkoniyati ham bor.


Agar hohlasangiz yaratgan savolingiz qanday ko'rinishda bo'lishini kurmoqchi bo'lsangiz u holda menyular satridan **Preview** tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi, natijada siz yaratgan Savol turining foydalanuvchi (o'quvchi yoki talaba) uchun (oldindan) ko'rinishi paydo bo'ladi.

Barcha amallarni bajarilgandan keyin yaratilgan Savol turini Save tugmasini bosish orqali saqlaymiz.

Savol turi: Fill in the Blank

Bunday tipdagi Savol turida matn maydonida (tegishli so'z kiritish joyida) javobni klaviatura orqali kiritish kerak bo'ladi.

Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:




29-rasm. Fill in the Blank tipidagi savolning umumiy ko'rinishi

Savolga javob berish klaviatura orqali kiritiladi. Kiritilgan so'z, oldindan kiritigan so'zlar bilan to'liq mos kelsa, javob qabul qilinadi va savolga ajaratilgan ball beriladi. Javob kiritilgandan keyin Submit tugmasi bosilishi kerak.

Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyular osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Fill in the Blank** tanlanadi.

Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:




30-rasm. Fill in the Blank tipidagi savolini yaratish oynasi

Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savol va javob matnlari kiritiladi. Javob variantlarini kiritilayotgan vaqtda, imtihon vaqtida foydalanuvchi qanday javoblarni kiritishi mumkin bo'lgan barcha variantlarni qarab chiqish (kiritish) kerak bo'ladi. Masalan: "O'zbekiston poytahtini kiriting" savoli berilgan bo'lsa, Javoblar kiritish joyiga qo'yidagi variantlarni kiritish kerak bo'ladi: *Toshkent, toshkent, Toshkent*.


Shu sababli bunday tipdagi savollardan foydanailayotganda savol oldiga foydalanuvchilar uchun alohida izoh kiritib utish kerak bo'ladi. Savolga izoh berish uchun qo'yidagi amal qilinadi.

Savol oynasining menyular satridagi (**Insert** bo'limida) **Note** menyusi bosiladi.



31-rasm. Menyular satrining ko'rinishi

Natijada, **Note** menyusi bosilgandan keyin savolga javob kiritish oynasining o'ng tarafida qo'yidagi oyna chiqadi:



32-rasm. Note menyusining umumiy ko'rinishi


Bu yerda test savoliga oid biror bir izoh kiritishingiz mumkin bo'ladi. O'z navbatida shuni ham aytib utamizki, test savollariga faqat "izoh" kiritmasdan video yoki audio fayllarni yuklash mumkin.

Barcha amallarni bajarib bo'linganidan keyin yaratilgan Savol turini saqlaymiz. Test savoli kiritilmagan bo'lsa yoki to'g'ri javob(lar) belgilanmagan bo'lsa, saqlamoqchi bo'lgan faylingiz saqlanmasligi mumkin.

Savol turi: Matching

Bunday tipdagi savol tiplarida moslikni topish kerak bo'ladi, javob va savollar o'ng va chap tomonlarga ajratilgan bo'ladi. Foydalanuvchi (test topshiruvchi talaba, o'quvchi) o'ng va chap tomondagi so'zlarning juftini topib, sichqoncha orqali birlashtirishi kerak bo'ladi.


Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:



33-rasm. Matching tipidagi savolning umumiy ko'rinishi

Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyu osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Matching** tanlaysiz.

Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:



34-rasm. Matching tipidagi savolini yaratish oynasi

Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savolga to'g'ri keladigan mos javobni savol to'g'risiga kiritish kerak bo'ladi. Savol va javobning matn kiritish joyiga rasm, multimedia elementlarini (audio, video yoki fleysh fayllarini) joylashtirish mumkin.

Barcha amallarni bajarilgandan keyin yaratilgan Savol turini saqlaymiz. Savoli kiritilmagan bo'lsa yoki javobga mos keladigan moslik yozilmagan bo'lsa, saqlamoqchi bo'lgan faylingiz saqlanmasligi mumkin, natijada hatolik chiqadi.

Savol turi: Sequence

Bunday tipdagi Savol turida berilgan obyektlarni ma'lum bir qoida asosida ketma-ketlikni sichqoncha orqali joylashtirishi (tartibga solishi) kerak bo'ladi.

Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:

New Quiz

Question 1 of 1 | Sequence | 10

Сонларни usish tartibida joylashtiring

1 8

2 6

3 10

4 0

Outline... Submit

35-rasm. Sequence tipidagi savolning umumiy ko'rinishi

Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyular osti satrlardan ketma-ket ravishda **Question - Sequence** tanlaysiz.

Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:

Question Properties

Font Feedback Score Image Equation Note Preview

Enter the question

Сонларни usish tartibida joylashtiring

Enter the items

No.	Correct Order
1	10
2	8
3	6
4	0

Prev Question Next Question New Question OK Cancel

36-rasm. Sequence tipidagi savolini yaratish oynasi


Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savol va javob matnlarini kiriting. Savol oynasiga bu tipdagi savolning shartini kiritib qo'ish mumkin, masalan Qo'yida keltirilgan sonlarni usish (kamayish) tartibida joylashtiring. Javoblar kiritish oynasiga sonlarni aynan usish tartibida joylashtirish kerak bo'ladi. Aynan usish tartibida. Talabalarga savol bo'lib tushganda savol "panelcha"lari aralashgan holda tushadi. Talaba(o'quvchi) esa sichqoncha orqali sonlarni usish (kamayish) tartibida joylashtirishi kerak bo'ladi. Javob kiritilgandan keyin **Submit** tugmasi bosilishi kerak. Savol va javobning matn kiritish joyida multimedia elementarini (audio, video va fleysh fayllarni) joylashtirish mumkin.

Barcha amallarni bajarilgandan so'ng yaratilgan Savol turini saqlaymiz.

Savol turi: Word Bank

Bunday tipdagi Savol turi Matching tipiga o'xshash bo'lib, faqat so'zlar o'ng va chap tomonda keltirilmasdan, savol oynasining pastiga so'zlar banki sifatida jam bo'lib (aralashgan) holda bo'ladi.

Bunday tipdagi savolning umumiy ko'rinishi qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:




The screenshot shows a 'New Quiz' interface. At the top, it says 'Question 1 of 1 \ Word Bank \ 10'. Below that, the question text is: 'Бўш қолдирилган жойларни пастда келтирилган сўзлар банкidan фойдаланиб тўлдилинг.' (Fill the blank spaces in the text below with the words listed in the bank below). The question is followed by four input fields for the words: 'куч', 'масса', 'тезланиш', and 'иш'. Below these are four radio button options: 'a', 'A', and 'm'. At the bottom right, there is a 'Submit' button.

37-rasm. Word Bank tipidagi savolning umumiy ko'rinishi

Savolga javob berish klaviatura orqali kiritiladi. Kiritilgan so'z, oldindan kiritilgan so'zlar bilan to'liq mos kelsa, javob qabul qilinadi va savolga ajaratilgan ball beriladi. Javob kiritilgandan keyin **Submit** tugmasi bosilishi kerak.

Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyu osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Word Bank** tanlanadi.

Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:



The screenshot shows the 'Question Properties' dialog box. The 'Enter the question' field contains the same Russian text as in the previous image. Below it, the 'Enter the choices' section has a table with four rows and two columns: 'No.' and 'Choice'. The choices are: A: куч, B: масса, C: тезланиш, D: иш. The corresponding letters in the 'Choice' column are F, m, a, and A.

No.	Blank	Choice
A	куч	F
B	масса	m
C	тезланиш	a
D	иш	A

38-rasm. Word Bank tipidagi savolini yaratish oynasi

Rasmda ko'rsatilgan tegishli joylariga mos ravishda savolga to'g'ri keladigan mos javobni savol to'g'risiga kiritish kerak bo'ladi. Savol va javobning matn kiritish joyiga rasm, multimedia elementlarini (audio, video yoki fleysh fayllarini) joylashtirish mumkin.

Agar hohlasangiz yaratgan savolingiz qanday ko'rinishda bo'lishini kurmoqchi bo'lsangiz u holda menyular satridan **Preview** tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi, natijada siz yaratgan Savol turining foydalanuvchi (o'quvchi yoki talaba) uchun (oldindan) ko'rinishi paydo bo'ladi.

Foydalanuvchi so'zlar bankidan foydalangan holda sichqoncha orqali tegishli so'zning yoniga (mos) joylashtirishi (o'rnatishi, joylashtirishi) kerak bo'ladi.

Barcha amallarni bajarilgandan keyin yaratilgan Savol turini Save tugmasini bosish orqali saqlaymiz.

Savol turi: Click Map (haritani belgilash)

Bu tipdagi savol orginal tipdagi savollardan biri hisolanadi. Bu tipdagi savolda harita deb nomalanadigan faylning biror bir joyini belgilashi kerak bo'ladi. Belgilash dasturda berilgan dumaloq ko'rsatgich orqali yoki foydalanuvchining o'zi tegishli

sohani aylana ko'rinishida chizishi orqali amalga oshiriladi. Agar talaba tomonidan belgilangan soha suralayotgan soha bilan mos tushsa, javob to'g'ri aks holda javob hato bo'ladi.


Bunday tipdagi savollar orqali biror bir rasmdagi ma'lum bir joylarini aniqlashda ishlatish mumkin. Juhrofiya (Geografiya) fanida dunyo haritasidan biror bir davlatni ko'rsatishda va boshqa holatlarda keng foydalanish mumkin.

Bu yerda zotdor itning tana qismining ma'lum qismini topish so'ralayapti. O'quvchi (test topshirayotgan foydalanuvchi yoki talaba) so'ralayotgan sohaga sichqoncha orqali tegishli doira shaklidagi shakl orqali belgilashi kerak bo'ladi.

Javob belgilangandan keyin Submit. tugmasi bosilishi kerak.


Bunday tipdagi savolni yaratish uchun menyular satrida joylashgan qo'yidagi menyu osti satrlarni ketma-ket ravishda **Question - Click Map** tanlanadi.

Natijada shu tipdagi savolni kiritish oynasi chiqadi:



39-rasm. Click Map tipidagi savolini yaratish oynasi

Savol oynasiga savol matnini kiriting. So'ngra, **Import** tugmasini bosish orqali tegishli rasmni yuklaymiz.



40-rasm. Click Map tipidagi savolini yaratish oynasi

Instrumentlar paneli orqali (pastda joylagan rasimga qarang) yuklangan rasmning tegishli joyini (so'ralayotgan, topish kerak bo'lgan qismini) belgilaymiz.



41-rasm. Instrumentlar panelining umumiy ko'rinishi

Belgilash uchun instrumentlar panelida har xil ko'rinishdagi belgilash uskunalar mavjud, qo'lay uskunani tanlash orqali yuklangan rasmning tegishli sohasini belgilash mumkin bo'ladi.


Belgilangan joy (soha) aynan bizni qiziqtirayotgan savolning javobi bo'ladi. Shuningdek bu tipdagi savol uchun video roliklar, audio fayl yoki fleysh roliklarni ham yuklash mumkin. Savolni saqlaymiz (Save) tugmasini tanlash orqali. Agar saqlash vaqtida biror bir muammo paydo bo'lgan bo'lsa, u holda:

Savol kiritilmagan, rasm yuklanmagan yoki kiritilgan rasm sohasi belgilanmagan.

Va nihoyat eng ohirgi Savol turini o'rganib chiqamiz.

Savol turi: Short Essay. Qisqa bayon (esse) yozish talab qiladigan tipdagi savol hisoblanadi. Bu tipdagi savolning boshqa tipdagi savollardan farqi shundaki, berilgan savolni dastur baholamaydi, balki o'qituvchining o'zi baholashi kerak bo'ladi. Bu tipdagi savolni masofali ta'lim jarayonidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki talaba yozgan esse internet orqali o'qituvchining elektron pochtaga yetib boradi. O'qituvchi shundan keyingina talaba tomonidan yozilgan bayonni tekshirib o'zi mustaqil baholaydi. Yaratayotgan testning nazorat tipi masofali ta'lim jarayonida foydalanish rejalashtirilmagan bo'lsa u holda bu tipdagi Savol turidan foydalanish kerak (shart) emas.


Menyular satridan bu tipdagi savolni tanlaganingizdan keyin qo'yida ko'rsatilgan oyna chiqadi:



42-rasm. Short Essay tipidagi savolini yaratish oynasi

Talaba (o'quvchi) savolni o'qib bo'lgandan keyin bo'sh qoldirilgan joyga so'ralayotgan topshiriqni bayon qilish kerak bo'ladi ya'ni klaviatura orqali yozishlar kerak bo'ladi. Yana ta'kidlab o'tamizki, bu turdagi savollarni o'qituvchining o'zi tekshiradi. Kompyuter dasturining o'zi baholamaydi.

Yaratib bo'lingan testlarning barchasi qo'yida ko'rsatilgan holda guruhlangan holda shaklangan bo'ladi.



43-rasm. Wondershare QuizCreator dastur muhitida yaratilgan testlarning umumiy ko'rinishi

Agar etibor bergan bo'lsangiz bu oynada savollarni savol turiga bog'liq ravishda guruhlangan holda shaklantirish mumkin.

Agar yaratilgan savollarga biror bir o'zgartirish kiritish niyatida bo'lsangiz, savolga sichqonchani olib borib ikki marta ketma-ket bosamiz. Natijada test savolimizni o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi.

7 – amaliy mashg'ulot

Mavzu: Ta'limda gipermatn va multimediyadan foydalanish metodikasi.

Ishning maqsadi: Zamonaviy axborot jamiyatida mediata'lim rivoji tendentsiyalarini o'rganish.

Reja

1. Dunyo oliy ta'lim mafkurasi.
2. Sub'ekt darajasi.
3. Intersub'ekt ta'lim.
4. Ta'limda zamonaviy Internet kommunikatsiyalarining qo'llanilishi.

O'quv jarayoni qatnashchilarini axborotlashtirilishining 2 turda yo'nalishdagi tendentsiyalari hozirgi paytda aniqlanyapti. Birinchisi turli axborotlarni ko'payishi, zamonaviy bazalar va ma'lumot banklari yaratilishi, dasturiy ta'minot va uslubiy, statistik materiallarni nashrdan chiqarish bilan kuzatiladi. Ikkinchidan, qarama – qarshisi, ob'ektiv va sub'ektiv xarakterga ega axborot oqimlarini tanlash tendentsiyasi bilan bog'liq.

Nazorat savollari

1. Dunyo ta'limining rivoji, roli, holati to'g'risida nima deya olasiz?.
2. Ta'limning tavsifiy bahosi nimadan iborat?.
3. Ta'lim muassasasini zamonaviy axborot – ta'limiy muhitini yaratish qanday amalga oshiriladi?

8-10 AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN VAZIFALAR

Mavzu. Simulyatorlar bilan ishlash.

Maqsad. Simulyatorlar bilan ishlashga o'rganish.

Vazifalar:

1-qism. Nazariy ma'lumotni o'rganing va qo'yidagi savollarga javob bering:

1. Simulyator deganda nimani tushunasiz?
2. Simulyatorning vazifasi nimadan iborat?
3. «Physics Education Technology» (PhET) sayti kim tomonidan yaratilgan?
4. <http://phet.colorado.edu> saytida qaysi ma'lumotlar mavjud?
5. «Physics Education Technology» (PhET) saytidagi modellarni o'zbek tiliga tarjima qilish mumkinmi?

O'quv jarayonida modellardan foydalanish yangi usul emas. Qadim-qadimdan o'quv-o'rganish mobaynida modellardan foydalanib kelingan. Simulyatorlar o'quv jarayoning qariyb barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qo'llanilishi mumkin. Keyingi vaqtlarda xattoki medisina sohasida ham simulyatorlardan foydalanilmoqda. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real obyektlarga nisbatan juda ham arzon alternativa

ekanligidir. Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror bir fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejaliishiga, balki ularga umuman ehtiyoj ham tug'dirmaydi. Simulyatorlarning qariyb hanch qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanligidir. Ba'zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan, yadro fizikasiga oid bo'lgan hodisalarni o'rganish. Bunday tadqiqot katta miqdorda moliyaviy xarajat talab etibgina qolmasdan, tadqiqotni olib boruvchilar uchun hayotiga xavf ham tug'diradi.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan bilimlarini virtual bo'lsada hayotga tadbiiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadbiiqotlarning rivojlanishiga bevosita xissa qo'shadilar. Bundan tashqari o'sha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadbiiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o'z xissalarini qo'shishlari mumkin. Bu o'z o'rnida talabalarni faqatgina "tinglovchi" vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadbiiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida talabalarda o'qish va tadbiiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

Tabiiy fanlar yo'nalishida 2001 yildagi Nobel mukofotining laureati K. Viman tomonidan «Physics Education Technology» (PhET) sayti yaratilgan. PhET saytida har xil mavzularga oid modellar mavjud bo'lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan.



© 2009 University of Colorado. Some rights reserved.

1-rasm. PhET dasturining umumiy ko'rinishi.

PhET saytida taqdim etilayotgan modellar Open Source bo'lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhET dagi modellar soni 100 dan ortiq bo'lib ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o'tkazish, virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatiga ega. Bu PhET dasturi O'zbekiston davlat ta'lim standartlariga va o'quv muassasalarida qo'llanilayotgan adabiyotlariga mos keladi.

PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> saytidan ko'chirib olishingiz mumkin.

PhET dasturidagi modellardan fizika, matematika, ximiya va biologiya fanlaridan dars mashg'ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin.

Xususan fizika faniiga oid 90 dan ortiq modellar mavjud;

Biologiya faniga oid 10 dan ortiq modellar mavjud;

Matematika faniga oid 7 ta model mavjud;


Ximiya faniga oid 20 dan ortiq modellar mavjud.

Dasturda keltirilgan modellarni faqat ingliz tilida emas. Balki 50 dan ortiq tilga tarjimalarini topish mumkin, xususan o'zbek tilida 1 ta model tarjima qilingan. Agar siz dasturda keltirilgan modellarni o'zbek tiliga tarjima qilishni hojlasangiz, xech qanday qiyinchiliksiz bu niyatingizni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun dasturning rasmiy saytida "Translated Sims" bandi mavjud bo'lib, u yerga kirib maxsus qaydnomani tuldirdigan holda tegishli modelni tanlab o'zbek tiliga tarjima qilishingiz mumkin.

PhET dasturida har xil fanlar kesimidagi modellarning ko'rinishini qo'yidagi rasmda ko'rishingiz mumkin:



Balloons and Static Electricity




Capacitor Lab



Circuit Construction Kit (DC Only)




Circuit Construction Kit (AC+DC)




Magnet and Compass




Magnets and Electromagnets




Generator



Electric Field Hockey




Charges and Fields




Acid-Base Solutions



Alpha Decay



Atomic Interactions



Balancing Chemical Equations



Balloons & Buoyancy



Balloons and Static Electricity



Beta Decay




Blackbody Spectrum




Build a Molecule

2-rasm. PHET dasturida mavjud modellarning ko'rinishi



Conductivity



Semiconductors



Circuit Construction Kit (AC+DC), Virtual Lab




Circuit Construction Kit (DC Only), Virtual Lab



Signal Circuit

3-rasm. PHET dasturining "Elektr va magnitezm" bo'limiga oid modellar



4-rasm. PHET dasturida mavjud modellarning ko'rinishi

PHET dasturining rasmiy <http://phet.colorado.edu> saytining “O’qituvchilar uchun” bandida har bir model uchun metodik ko’rsatmalar (virutal laboratoriya ishlari, namoyish tajribalari va boshq.) keltirilgan. O’qituvchi xech qanday qiyinchiliksiz qo’yidagi qidiruv filtri orqali (5-rasm) mavzuga oid dars ishlanasini yoki metodik ko’rsatmalarni, ta’lim turi kesimida pdf yoki doc formatlarida ko’chirib olishi mumkin.

2-qism. Crocodile Clips Ltd simulyatorlaribilan ishlash.

Crocodile Clips Ltd o'zining yaratgan dasturlarini hozirda uy sharoitida (**home licence**) o'qituvchi va o'quvchilar (talabalar) bepul foydalanishlari uchun imkoniyat yaratdi.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, hozirda Crocodile kompaniyasi dasturiy ta'minotlarini Yenka nomi bilan takomillashtirilgan holda yaratildi. Hozirda bu dasturlar Yenka nomi bilan chiqmoqda, lekin dasturlarning ishlashi Crocodile dagidan farq qilmaydi.


Keling, endi shu dasturiy ta'minotlar bilan tanishib chiqsak.

Fizika fanida Crocodile Physics dastur muhitidan foydalanish.


Crocodile Physics dasturi xaqida.

Crocodile Physics dasturi fizik jarayonlarni modellashtirish va fizikaning mexanika, Elektr zanjirlar, Optika va To'liqin hodisalari bo'limlariga oid tajribalar yaratish va kuzatish imkoniyatini beruvchi dasturdir. Bu kuchli dastur fizik hodisalarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va turli murakkablik darajasidagi jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi.

Ushbu dastur Crocodile Clips Ltd tomonida 1994 yildan beri takomillashtirilib kelinmoqda. Dasturdan masala yechishda, virtual laboratoriya ishlarini va namoyish tajribalarini tashkillashtirishda keng foydalansa bo'ladi. Dastur fizikaning barcha bo'limlari bilan ishlash, jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi.



6-rasm. Crocodile Physics dastur muhitining ishchi stoli




7-rasm. Crocodile Physics dastur muhitida yaratilgan model.

Dasturning o'ziga xos xususiyatlari: Fizik hodisalarni namoyish etuvchi optimal dastur, 50 dan ortiq qadamma - qadam o'rgatuvchi darslar, 150 dan ortiq

fizikaning bo'limlariga oid tayyor modellar, fizik jarayonlarni kompyuterda modelashtirish imkoniyati, mustaqil modellashtirish imkoniyatini beruvchi sodda interfeys, Yer sharoitida o'tkazish qiyin bo'lgan tajribalarni amalga oshirish va kuzatish, dasturning kuchli instrumentariyasi, tajribada qatnashayotgan fizik kattaliklarning qiymatini juda yaxshi aniqlik bilan hisoblash imkoniyatini beradi, fizik hodisada qatnashayotgan fizik kattalik bilan boshqa fizik kattaliklar o'rtasidagi grafikli bog'lanishni hosil qilish, yaratilgan modellarni saqlash va qog'ozga chop etish mumkin.


Crocodile Technology dasturiy haqida

Bu dasturdan o'rta maktab o'quvchi va o'qituvchilari, lisey, kollej talabalari va oliy ta'lim muassasalarining talaba, professor-o'qituvchilari «Elektr», «Elektrotexnika», «Sxemotexnika», «Elektr zanjirlar nazariyasi» fanlarida qo'shimcha pedagogik dasturiy vosita sifatida keng foydalanishlari mumkin.



8-rasm.

Dastur elektron konstruktor bo'lib, u monitor ekranida elektr sxemalarini yig'ish jarayonini xuddi haqiqiy tajribadagi singari imitatsiya qilish, elektr kattaliklarni multimetrdagi (3 o'lchovli), ampermetr va voltmetrlarda o'lchash imkoniyatini beradi.



9-rasm.

Masalan, dasturda:

Mikroprosessorlarni dasturlash va robototexnikaga oid modellarning 3D ko'rinishda simulyasiyalashtirish mumkin.

- Konstruktor detallarining tasviri va o'lchov asboblarning sxematik va haqiqiy ko'rinishda berilgan;
- Qarshilikdan oqib o'tayotgan tok quvvatining qiymati berilgan nominaldan ortib ketsa, qarshilik (portlab) kuyadi, bu esa ekranda uning rangi o'zgarib qoraygan detal ko'rinishiga o'tishi bilan ko'rsatiladi;
- Lampochka va elektr isitgich asboblari quvvatning nominal qiymatida yorqinlashadi, agar ulardagi quvvat ishchi qiymatidan ortib ketsa kuyadi va bu asbob ekranda qorayib qoladi. Xuddi shuningdek ekranda boshqa detallardagi fizikaviy kattaliklarning o'zgarishi imitatsiya qilinadi;
- Ko'pgina jarayonlar va ularning natijalari tovushli effektlar orqali ifodalanadi. Bularning barchasi, talaba o'zi yo'l qo'ygan xatolarini ko'rishi, muvaffaqiyatsiz bajarilgan tajribaning sabablarini aniqlashni o'rganishi va elektr sxemalarini tajribani haqiqiy qurilmalarda bajarishdan oldin tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish imkonini beradi.

Bu dastur, kasbi kim bo'lishidan qat'i nazar foydalanuvchini izlanuvchanlikka, ijodiy fikr yuritishga, ish natijalarini tahlil qilishga o'rgatadi.


Dastur imkoniyatlari juda keng bo'lib, undan amaliy mashg'ulotlarda (ya'ni masalalar yechishda) ayniqsa, virtual laboratoriya ishlarini bajarishda keng foydalanish mumkin.

Crocodile Chemistry dasturi haqida.

Crocodile Chemistry dasturi orqali Mendeleev jadvalida mavjud barcha elementlarning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini o'rganish mumkin. Odatda kimyoviy reaksiyalar ruy berish vaqtida reaksiyaga qatnashayotgan molekulalarning boshqa molekulaga aylanish jarayonini (molekulyar darajada) kuzatish iloji yo'q. Lekin, bu dastur orqali kimyoviy moddani boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishish jarayonida molekulalarning dinamikasini kuzatish mumkin bo'ladi.

Bu dastur orqali kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, turli reaksiyalarni o'tkazish va, eng asosiysi, buni xavfsiz amalga oshirish mumkin.


Bu dasturdan o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlarida kimyo fanini o'qitishda keng foydalanish mumkin.




10-rasm.

Dastur orqali ixtiyoriy shakldagi idishlardan foydalanib, turli reaktivlarni o'zaro aralashtirib kimyoviy reaksiyani ko'z atash mumkin. Kimyoviy reaksiya vaqtida reaktivlarning rangi, moddalar ulushini, kimyoviy reaksiya formulalarini maxsus oynada ko'rish imkoniyati dasturning kuchli pedagogik qurol sifatida

foydalanish imkoniyatini beradi. Crocodile Chemistry dasturining bunday imkoniyatlari kimyo fanini o'qitishda inqilobiy o'zgarishga sabab bo'ldi.



11-rasm. Crocodile Chemistry dastur muhitida yaratilgan kimyoviy reaksiya jarayoni.



12-rasm.


Crocodile ICT dasturi haqida.

Crocodile ICT dasturi, Yevropa mamlakatlarida Informatika fanini o'qitishda juda yaxshi samara bermoqda. Bu dastur yordamida informatikada dasturlash jarayonini, aniqroq qilib aytganda algoritmlash bo'limini o'quvchiga aniqroq yetkazib berish mumkin.



13-rasm.

Obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'qitishda juda qo'l keladigan Crocodile ICT ning oddiy interfeysi va blok sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animasiya ko'rinishda tasvirlash mumkin.



14-rasm.

Bundan tashqari, blok sxemalarda biror bir shart bajarilganda odam personajlariga 30 dan ortiq harakat turlarini (salta olish, qarsak chalish, o'ngga yoki chapga harakatlanishi, ularning yuzlarida emosional o'zgarishlarni, ma'lum bir so'zlarni gapirishlari va hakazo) bajartirish mumkin. Dasturning bunday imkoniyati o'quvchining (talabaning) darsdan zerikishining, e'tibori pasayishining oldini oladi. Bu esa ma'lum ma'noda ta'lim samaradorligiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xush bu dasturlarni qayerdan qanday qilib olish mumkin?

Buning uchun siz quyidagi ko'rsatmalarni bajaring.

6. Internet brauzerga <http://www.yenka.com> saytini tering.
7. <http://www.yenka.com> sayti orqali Ruyhatdan o'ting
8. Ro'yhatdan o'tganingizdan keyin o'quv muassasalari uchun uy sharoitida foydalanish bepul hisoblanadi. Bunda siz uchun maxsus kod beriladi.
9. Saytning Downloads bandidan ([http://yenka.com/file/YK/3.0.1/Yenka 3 0 1 Setup.exe](http://yenka.com/file/YK/3.0.1/Yenka_3_0_1_Setup.exe)) 61 M hajmdagi dasturni kompyuteringizga ko'chirib oling.
10. Ruyhatdan o'tganingizdan keyin berilgan kodni terib, dasturni ishga tushiring

Shuningdek, Crocodile Clips Ltd umuman litsenziya talab qilmaydigan (Free software) dasturlari ham mavjud. Bu dasturlar Crocodile Science Player va Crocodile ICT Player hisoblanadi. Bu dasturlarni <http://www.crocodile-clips.com/en/Downloads/> murojatidan ko'chirib olishingiz mumkin.

“MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISH METODIKASI” fanidan



TARQATMA MATERIALLAR

**Электрон ўқув курсларини
лойиҳалаш. Электрон ўқув курси
моделли.**

Режа:

- 1. Электрон ўқув курсига қўйиладиган талаблар.
- 2. Электрон ўқув курси мазмунига қўйиладиган талаблар.
- 3. Электрон ўқув курсини амалга ошириш шакллари ва унинг ўқув-тарбия жараёнидаги ўрни
- 4. Таълим серверидаги электрон дарслик ва электрон ўқув курси: амалга ошириш учун технологияларни танлаш.
- 5. Таълим *Web*-серверида ЭЎК ни тақдим этиш хусусиятлари.





Электрон дарслик ёки маърузалар kursi

Лекциялар kursi



электрон
дарслик ва
электрон ўқув
kursini yaratish
технологиялари

мультимедиа

гиперматнли
технологиялар
HTML, JavaScript,
VBScript, Perl, PHP

ихтисослаштирилган
инструментал
воситалар

ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИК ЯРАТИШ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРИ

ИНСТРУМЕНТАЛДА
ДАСТУРИЙ
ВОСИТАЛАР

ПРОГРАММАЛАШТИ
РИШ ТИЛИ

ПРОГРАММАЛАШТИ
РИШ ТИЛЛАРИ

HTML, JAVA,
PHP, DELPHI,
C++

ИНСТРУМЕНТАЛ
ДАСТУРИЙ
ВОСИТАЛАР

MACROMEDIA FLASH,
MACROMEDIA DIRECTOR,
MACROMEDIA
DREAMWEAVER, MS
FRONT PAGE,
MS SHARE POINT
DESIGNER

КОНСТРУКТОР
ДАСТУРЛАР

Document Suite,
Asymetrix Toolbook,
Constructor Electronic
books, CourseLab

Document Suite



-

**Электрон дарслик
яратиш универсаль
воситаси**

Constructor Electronic
books

-


**Конструктор
Электронных
учебников**





Teach Book Lite

-

Конструктор Электронных учебников





Yangi Pedagogik -texnologiyalarini amaliyotga tadbiiq etish .

Yangi pedagogik texnologiyalarini amaliyotda ko'llanishi , talabalarni olgan bilimlarini mustaxkamlanishiga katta yodam beradi . Buning uchun bir necha metodlar mavjud:


- **Charxpalak metodi.** (Aktivlikni tezlatuvchi metod)
- **Klaster metodi.** (Fikrlar tamoklashuvi)
- **Bumerang metodi** (Ortga kaytish metodi)
- **FSMU** – fikr, sabab, misol, umumlashtirish. (Kompyuter darslarini samaradorligini oshirish metodi)
- **Akliy xujum.** (Zamonaviy o'kituvchiga ta'rif)

Charxpalak metodi.

Axborot turlari	OS lar	Dasturlar	Axborot tashuvchilar
MS DOS			
Excel jadval xisoblagichi			
Virus			
CD , RV			
Matn muxarrirlari			
Internet			
CD ROM			
POWER Point			
Anti virus			
Modem			
Televidenie			
PTS			
Radio			
UNIX, APLE Makintosh			

Talabalar bu metod orkali, o'zaro bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega buladilar. Ya'ni xar bir talaba shu jadvalni tugri tuldirishga xarakat kiladilar va bir- birlarini ishlarini tekshiradilar. Oxirida birinchi talabaga kaytishi Bilan tugaydi.

Klaster metodi



Bu metodda **nima?** Degan savolga javob berish bilan talabning fikri tarmokli ko'rinishda nomoyon bo'ladi.

Bumerang metodi

Bu metodda talabalar turt guruxga bulinadilar va turt xil mavzu tanlab oladilar.

Xar guruxda turtta talabadan bir mavzu va oxirida 1,2,3,4 guruxlardan bittadan vakil yigiladi va turtta mavzu ketma – ketligi yigiladi . talabalarni shu mavzu buyicha savol - javob kilinadi.

Katorlar bilan xam shunday ishlash mumkin. Bu metod talabalarni nutkini , eshitish kobilyatlarini oshiradi. Boshka tingloachilarni xam ragbarlantirish kerak buladi, ya'ni baxosini oshirish eki pasaytirish va uyga vazifa kilib berish lozim buladi.

FSMU – fikr, sabab, misol, umumlashtirish.

Kompyuter darslarini samaradorligini oshiradi:

Fikr:

Sabab:

Umumlashtirish:

Akliy xujum.

O'kituvchi dars jaraenida olib boradigan vazifasi	O'kituvchining mexnati	O'kituvchining maxorati
Ta'lim Tarbiya Bilim Baxolaydi O'rgatadi Suraydi Topshirik bajartiradi	Akliy Jismoniy Ruxiy Ogir engil	Notik Psixolog Artist Mativator Etaklovchi boshkaruvchi

Zamonaviy o'kituvchiga ta'rif:

Namunali, boshkaruvchi , akliy – ijodiy mexnat, maxoratlarga artistlik kobilyati va insonparvar bulishi kerak.

Тизимнинг функционал схемаси



Тизим фойдаланувчилари ҳуқуқлари

Тизимда асосан уч турдаги фойдаланувчилар мавжуд.

Уларнинг ҳуқуқлари қуйидагилардан иборат:

- **Администратор** – тизимни бошқариш; янги нима тизимлар, модулар, категориялар ва ахборот контентларни ташкил қилиш; фойдаланувчилар ҳуқуқларини белгилаш; тизим ахборот хавфсизлигини таъминлаш ва б.
- **Методист** – ўқув юктамалари шакллантириш; талабалар давомадини юритиш ва б.
- **Ўқитувчи** – он-лайн масофавий дарсларни ташкил қилиш (ўқув фанлари, лаборатория машғулотлари, тестларни шакллантириш); талабаларни баҳолаш ва ўқув жараёнини назорат қилиш ва б.
- **Талаба** – онлайн дасрларга аъзо бўлиш; масофадан туриб топшириқларни бажариш ва тест топшириш; электрон ресурслардан фойдаланиш ва б.

Тизим фойдаланувчилари функциялари

Ўқув бўлими функцияси




Ўқитувчи функцияси




Талаба функцияси



Методист





Қўлланилган технологиялар

Ушбу платформани тузишда қуйидаги замонавий дастурлаш технологияларидан фойдаланилди:

- Дастурлаш типлари ва технологиялари:
PHP, JAVA Script, AJAX, HTML
- Маълумотлар базалари:
MySQL
- Он-лайн видео узатишда:
Adobe Flash 10, JV Player ва б.

XORIJY MANBALAR

1. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2003. — 192 с.
2. В.А.Красилникова, Информационные и коммуникационные технологии в образовании: Учебное пособие, М.: Дом педагогики, 2006, -231 с.
3. Новые информационные технологии в образовании: материалы междунар. науч.-практ. конф., Екатеринбург, 13–16 марта 2012 г. // ФГАОУ ВПО «Рос. гос. проф.-пед. ун-т». Екатеринбург, 2012. 538 с.
4. Information Technology and Educational Management in the Knowledge Society: IFIP TC3 WG3.7, 6th International Working Conference on Information Technology in Educational Management (ITEM) July 11-15, 2004, Las Palmas de Gran Canaria, Spain
5. Information Technology in Educational Management: Synthesis of Experience, Research and Future Perspectives on Computer-Assisted School Information Systems, A.J. Visscher, P. Wild, A. Fung -
6. Information Technology in Educational Management, Ben-Zion Barta, Moshe Telem, Y. Gev

Mustaqil ish mavzulari

- 1 Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlari va ulardan amaliy foydalanish
- 2 Kasbiy sohalar bo'yicha ta'limiy elektron vositalarni yaratish va unga qo'yiladigan pedagogik, psixologik va ergonomik talablarni yoritib berish
- 3 Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
- 4 O'quv material bazaning tarkibi va tuzilmasi, hisoblash texnikasi va aborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta'limiy maqsadlarda samarali va havfsiz ishlatishning pedagogik va ergonomik shart-sharoitlari va ularga oid dars ishlanmalarini tayyorlash
- 5 Axborot-kommunikasiya texnologiyalari xonasini jihozlash
- 6 Kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar va ularni yaratish. (Biror bir mavzu bo'yicha)
- 7 Biror bir fandan elektron darslik yaratish metodikasi
- 8 Elektron ta'limiy vositalardan foydalanib darslarni tashkil etish
- 9 Kompyuterli testlash dasturlarini tuzish

Atamalar

O'qitish – bu ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tizimli bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan jarayondir.

Ta'lim – bu o'qitishning natijasi bo'lib, shaxsiyatni tarbiyalash va rivojlantirishdir.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir.

Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi. **Modullilik** – Bir biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi. **Parallellik** – O'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – Ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariغا murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.

Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish kontseptsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi. **Keys-texnologiya** – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi.

TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televidenie vositasi yordamida etkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi.

Authentication- Autentifikatsiya. Muayyan axborot manbaining yo uni egasining aslini bilib olish. Bu maqsadda nosimmetrik kriptotizimdan

foydalanilganda hujjatning aslini (kelib chiqishini) xujjat tuzuvchining raqamli imzosi vositasida aniqlab olinadi. Autentifikatsiya keng ma'noda qaralganda axborotning manba'idan qat'iy nazar uning faqat ichki tuzilmasi asosida butunligini aniqlashdir.

Authorized access - Ruksatli munosabat(kirish). Axborotga va axborot texnologiyasi elementlariga nisbatan belgilab qo'yilgan cheklov qoidalariga rioya qilingan holda faol munosabatda bo'lish.

Certify - Kalitni sertifikatlash. Biror kimsaning oshkora kalitini raqamli imzo bilan tasdiqlash.

Certifying Authority - Vakolatli sertifikat. Kalitni sertifikatlash va buni umumiy ma'lumotlar bazasiga kiritish huquqiga ega bo'lgan ishonchga sazovor shaxs (yo shaxslar).

Confidentiality information - Axborot pinhonaligi. Axborotning u bilan bajarladigan axborot jarayonlari davomida u bilan beruhsat tanishish yo uni ko'chirib olishga yo'l qo'ymaslik xossasi.

Confidentiality information - Pinxona axborot. Xujjatlashtirilgan shunday axborotki, unga nisbatan barcha munosabatlar (ruscha, dostup) qonun bilan cheklangan.

Confidentiality mark - Maxfiylik grifi. Xujjatlashtirilgan axborotning maxfiylik darajasini ko'rsatuvchi rekvizit (masalan, o'ta maxfiy, maxfiy, pinxona, xizmatda foydalanish uchun, oshkora).

Cryptographic method - Kriptografik metod. Axborotni shifrlashga asoslangan ximoyalash usuli.

Data destruction - Axborotni yo'q qilish. Axborotni tasodifiy xato tufayli yo qasddan moddiy tashuvchidan o'chirib yuborish yoki tashuvchisi bilan birga o'g'irlab ketish.

Data falsification - Axborotni soxtalashtirish. Axborot jarayonlari davomida axborot mazmunini qasddan buzib o'zgartirish.

Data protection - Axborot ximoyasi. Axborotning pinxonaligi, butunligi va qobilligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy, siyosiy, tashkiliy, texnikaviy va dasturiy tadbirlar majmui.

Data transmission blocking - Axborot uzatishni to'sish. Axborot uzatishni qasddan yo tasodifiy xato tufayli to'xtatib, yo'lini o'zgartirib yo kechiktirib qo'yishdan iborat bo'lgan axborot xavfsizligining buzish turi.

Decryption - Shifrni ochish. Shifrlangan axborotni tushunarli shaklga aylantirish. Buning uchun maxfiy kalitdan foydalaniladi.

Digest - raqamli iz(daydjest). Axborotning ixcham bir tomonlama xisoblanadigan funktsiyasi yoki faylning nazorat jamlamasi. Axborot o'zgarsa daydjest ham o'zgaradi.

Digital Signature - Raqamli imzo. Axborotning raqamli izi(daydjesti)ning shu axborotning xaqiqiyiligini tasdiqlovchi sub'ektning maxfiy kaliti bilan shifrlangan shakli. Raqamli imzo shu sub'ektga tegishli ekaniga ishonch xosil qilish uchun axborotning raqamli izini hammaga ma'lum bo'lgan funktsiya asosida hisoblab topib,

natijani raqamli imzo egasining oshkora kaliti bilan ochilgan imzosi bilan taqqoslash (verifikatsiyalash) yetarli.

Documented information - Xujjatlashtirilgan axborot. Moddiy tashuvchida aks etgan va uni belgilovchi rekvizitlarga ega bo'lgan muayyan axborot.

Encryption - Shifrlash. Axborotni undan xabardor bo'lishi lozim bo'lmagan shaxslar uchun mutlaqo tushunarsiz shaklga keltirish amali, ximoya usuli .

Enforcement - Majburlash. Foydalanuvchi yoki ijrochiga nisbatan moddiy yoki jinoiy javobgarlik taxdidi ostida axborot jarayonlari koidalarning bajarilishiga erishishga asoslangan ximoya usuli.

Identification - Identifikatsiya. Ko'rsatilgan identifikatorni uning egasiga takdim etilgan identifikator bilan takkoslash.

Identifier - Identifikator. Axborot jarayoni subekti , vositasi va obekti(axborot)ga takdim etiladigan, fakat unga biriktirilgan noyob belgi, simvollar qatori.

Information procedure - Axborot jarayoni. Axborotni yaratish, olib- yig'ish, saqlash, himoyalash, izlash, uzatish, taqsimlash, undan foydalanish yoki unga ishlov berish jarayonlaridan biri.

Information (data) integrity - Axborotning butunligi. Axborotning axborot jarayonlari davomida uni beruxsat o'zgartirish yoki yo'qotishga yo'l qo'ymaslik xossasi.

Information availability - Axborot qobilligi. Axborotning unga nisbatan ruxsat berilgan axborot jarayonlarini bajarilishiga yaroqlik va tayyorlik xossasi.

Information distortion - Axborot buzilishi. Axborotning axborot jarayonlari davomida xalal beruvchi tashqi ta'sirlar yo jarayon vositalari va ishtirokchilarining tasodifiy xatolari yo qasddan qilingan ishlar tufayli o'zgarib qolishi.

Information modification - Axborot modifikatsiyasi. Axborot mazmuni yo xmiqdorining axborot jarayonlari davomida o'zgarishi.

Information security - Axborot xavfsizligi. Axborotning va axborot jarayonlarini amalga oshirish vositalarining ma'lum turdagi tasodifiy va qasddan qilinadigan tahdidlardan himoyalanganlik holati

Information security service - Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi. Axborot xavfsizligini ta'minlovchi siyosiy, huquqiy, tashkiliy, texnikaviy va dasturiy tadbirlar, vositalar va meyorlar tizimi.

Information user - Axborot foydalanuvchisi. Axborot bilan biror axborot jarayonini amalga oshiruvchi sub'ekt (shaxs, tashkilot).

Information's security - Axborotning xavfsizligi. Axborotning tasodifiy yo qasddan qilinadigan tahdidlarga qarshi pinxonalikni, butunlikni va qobillikni saqlab qolish xossasi.

Introducer - Vositachi. Ochiq kalitlarning o'z egasiga taalluqligiga kafillik berishga vakolatli shaxs yo tashkilot. PGP dasturida vositachilar ularning ochiq kalitiga ma'lum ishonch darajasi taqdim etish orqali tayinlanadilar.

Intruders (hacker) - Axborot jinoyatchisi. Axborot xavfsizligini buzgan sub'ekt (shaxs, tashkilot).

Key - Kalit. Shifrlash, shifrnı ochish, raqamli imzo qo'yish va verifikatsiya(ishonib olish)da ishlatiladigan raqamli kod. Kalitlar nosimmetrik kriptotizimlarda juft(oshkora va mahfiy) xolda hosil qilinadi va bog'lamlarda saqlanadi. Simmetrik kriptotizimlarda faqat bitta(mahfiy) kalit ishlatiladi. Aralash kriptotizimlarda kalitlar juftiga qo'shimcha tarzda mahfiy seans aliti ishlatiladi.

Key Escrow - Kalitni deponirlash. Uchinchi tomonga o'z maxfiy kalitining nusxasini berish amaliyoti. Bunda uchinchi tomon shifrlangan axborotni bilib olish imkoniga ega.

Key Fingerprint - Bosma iz. Oshkora kalitni noyob tarzda ifodalovchi(belgilovchi) raqam va harflar qatori. Kalit egasidan telefon orqali Bosma izini so'rab olib o'zingizdagi uning oshkora kaliti Bosma izi nusxasi bilan taqqoslab, kalit nusxasining haqiqiy yo qalbaki ekanini bilish mumkin.

Key ID - Kalit identifikatori. Kishi o'qisa bo'ladigan kalitlar juftini noyob usulda belgilovchi qator. Kalitlarning ikki jufti bir xil foydalanuvchi identifikatoriga ega bo'lishi mumkin. Lekin kalit identifikatorlari har xil bo'ladi.

Key Pair - Kalitlar jufti. Oshkora va unga mos maxfiy kalit. Oshkor kalitli tizimda har bir foydalanuvchi kamida bitta kalitlar juftiga ega.

Keyring - Bog'lam. Kalitlar to'plami. Har bir foydalanuvchi oshkora kalitlar boylamiga va maxfiy kalitlar boylamiga ega.

Masking - Niqoblash. Axborotni axborot jarayenlari davomida kriptografik usul bilan berkitish.

Obstacle - To'siq. Ximoyalanadigan axborotga axborot jinoyatchisining yo'lini fizikaviy to'sib qo'yish asosida axborotni ximoyalash usuli.

Passiv attack - Nofaol tajovuz. Xavfsizlikka nofaol taxdidning yuzaga chiqishi.

Passiv threat - Xavfsizlikka nofaol taxdid. Tizim xolatini buzmasdan turib undan axborotning begonalariga beruxsat chiqib ketish xavfi.

Password - Parol. Amaliy munosabat boshlash uchun ishlatiladigan, subektning siri xisoblanadigan identifikator. Tizimga kirish uchun klaviatura tugmalarini bosish ketma-ketligi.

Physical threat - Fizikaviy xavf. Oqibati tizimga fizikaviy xavf keltiradigan taxdid.

Plaintext - Ochiq matn. SHifrlanmagan va imzolanmagan odatdagicha o'qib-tushuniladigan matn.

Potection strategy - Himoya strategiyasi. Malum tahdidlardan ximoyalanishni taminlashga qaratilgan mezonlarning formal tarifi.

Private Key - Maxfiy kalit. Bilishi shart bo'lgan sub'ektlardan boshqa xechkinga oshkora qilinmaydigan kalit. Simmetrik kriptotizimlarda shifrlash va shifrnı ochish uchun, nosimmetrik kriptotizimlarda raqamli imzo qo'yish va axborot shifrnı ochish uchun ishlatiladi.

Private Keyring - Maxfiy kalitlar boylami. Boylam egasiga tegishli bir yo undan ortiq maxfiy kalitlar to'plami.

Protection model - Ximoya modeli. Axborot ximoyasi tizimini aks ettirib, uni xavfsizlik darajasini tadqiq etishga imkon beruvchi tizim.

Public Key - Oshkora kalit. Axborotni shifrlash va raqamli imzoning to'g'riligini tekshirish uchun ishlatiladigan kalit. Oshkora kalit boshqalarga erkin tarqatiladi va birov uni bilgan bilan unga mos maxfiy kalitni hisoblab topolmaydi.

Public Keyring - Oshkora kalitlar bog'lami. Oshkora kalitlar to'plami. Uning tarkibida boylam egasining ham o'z oshkora kaliti bor.

Public-Key Cryptography - Oshkora kalitli(nosimmetrik) kriptografiya. Oshkora va maxfiy kalitlar juftidan foydalanishga asoslangan va ishlatiladigan aloqa kanalining himoyalangan bo'lishini talab qilmaydigan kriptotizimlar texnologiyasi.

Regulation - Tartibga solish. Axborotga beruxsat munosabatda bulishni minimumga keltirishga qaratilgan texnologiyaga asoslangan ximoya usuli.

Security audit - Xavfsizlikni tekshirish. Axborot tizimi va tarmog'ining hamda axborotlarning xavfsizlik xolatini tekshirib baholash.

Security model - Xavfsizlik modeli. Axborot xavfsizligi siyosatining formal ifodasi.

Security policy - Xavfsizlik siyosati. Axborot xavfsizligini taminlashga va tajovuz oqibatlarini tugatishga qaratilgan meyorlar majmui.

Signature - Imzo. Maxfiy kalit vositasida hosil qilinadigan raqamli kod. Imzo uni verifikatsiyalash jarayonida axborot aslini(manba'ini,egasini,tasdiqlovchisini) aniqlash imkonini beradi. Raqamli imzo maxfiy kalit va imzolanayotgan xujjat mazmunining funktsiyasidir.

Subject privilege - Mualliflashtirilgan kirish sub'ekti. Axborot tizimi obektlariga va axborotga amaliy munosabatda bo'lish uchun belgilab qo'yilgan xuquqlarga ega bulgan subekt.

Trojan horse - Trojan oti. Sub'ektning qonuniy vakolatlaridan foydalanib axborotga beruxsat munosabatda bo'lishga imkon beruvchi qo'shimcha pinxona vazifalarni amalga oshiruvchi dastur.

Trusted - Ishonchli. Ochiq kalit ishonchli, agar uni siz yo biror siz vakil etgan kimsa sertifikatsiyalagan bo'lsa.

Trusted computer system - Ximoyalangan kompyuter tizimi. Ximoya vositalari majmui o'rnatilgan kompyuter tizimi.

Unauthorized access - Beruxsat munosabat. Sub'ekt tomonidan axborotga va axborot vositalariga nisbatan cheklab kuyilgan qoidalarning buzilishi.

Unauthorized action - Beruxsat faoliyat. Sub'ektning axborot jarayonlarini amalga oshirish qoidalariga zid faoliyati.

User ID - Kalit foydalanuvchisi identifikatori. Kalitlar juftini belgilovchi jumla. Bunday jumla sifatida odatda kalit egasining to'la nomi va uning elektron pochta manzili ishlatiladi.

Ilova

Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar

1. Aripov M., Muxammadiyev J. Informatika, informasion texnologiyalar. (Xuquqshunoslik mutaxassisliklari uchun darslik) T. 2004 y
2. Gulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti uchun darslik-T.: 2000. 529 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi O'zR. qonuni. T. «Halq so'zi», 2004 y., 11 fevral.
2. Aripov M., Tillayev A. Web sahifalar yaratish texnologiyalari. T. 2006 y. 170 b.
3. Kompyuternie seti. Uchebniy kurs: Ofisinoye posobiye Microsoft dlya samostoyatelnoy podgotovki. Per. S. Angl. -2 izd., M; «Russkaya redaktsiya», 1999 - 568 b.
4. Jumanov I.I., Mingboyev N.S. Hisoblash sistemalarining informasion asoslari. Samarqand,: SamDU nashri, 2002, 107 bet.
5. Mingbayev N.S., Jumanov I.I. Informatika.- Samarqand,: SamDU nashri, 2002, 107 bet.
6. Mingbayev N.S., Jumanov I.I. Kompyuter texnologiyalari- Samarqand,: SamDU nashri, 2004, 152 bet.
7. Jumanov I.I., Mingboyev N.S. Axborot texnologiyalari (1-qism: axborot texnologiyalarning qurilmaviy va dasturiy ta'minoti), Samarqand,: SamDU nashri, 2005, 148 bet.
8. Jumanov I.I., Mingboyev N.S. Axborot texnologiyalari (2-qism: axborot texnologiyalarning informasion ta'minoti), Samarqand,: SamDU nashri, 2005, 70 bet.
9. Gulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /Akademik S.S. Gulomovning umumiy tahriri ostida -T.: «Sharq», 2000. 529 b. 10. Yuldashev U. Informasionbiye texnologii. Chast 1-2. T.: TGPU. 2007.
10. Gulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /Akademik S.S. Gulomovning umumiy tahriri ostida T.: «Sharq», 2000. 529 b.

Internet ma'lumotlari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.cs.ifmo.ru
6. www.intuit.ru
7. www.informatika.ru

Normativ hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora–tadbirlari to'g'risida»gi qarori.